



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASIMIZ!

Yangi O'zbekiston, yangi armiya,
Sadoqatli askar – po'lat bir qalqon!
G'anim ko'z tikkanda yurtim bag'riga,
Uyg'onur tomirda shonli bir tug'yon!

Jaloliddin kabi shiddat-la qaynoq,
Temur Malik misol qo'llarda bayroq.
Bu tuproq sherdillar maskanidir bil,
O'g'loning bor ekan, yovga yo'qdir yo'l,

Qalqonmiz! Qasammiz! Qudratli kuchmiz!
Dushmanning bag'rini kuydirgan o'chmiz!
Vatanning yengilmas himoyasimiz,
Yangi O'zbekiston armiyasimiz!!!

Har bir askarida alp erlar ruhi,
Chaqmoqday chaqnaydi ko'zlarda olov.
Bu muqaddas zamin, ajdodlar yurti,
Shijoat otiga urilmas jilov!

O'g'loningman Vatan, sadoqatim chin!
Tinchliging asrashga ichganman qasam.
Har bitta nafasim sen uchun fido,
Sen yasha, sen gulla jon O'zbekiston!

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori



Kapitan Shohrux SAIDOV



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 17-IYUL
№29 (3195)



“Eng ulug‘, eng aziz” ko‘rik-tanloviga

YAGONA MAQSAD YO‘LIDA

Inson hayotida shunday ulug‘ ne‘matlar borki, ularning qadri yillar o‘tgani sayin yanada ortib, avlodlar uchun bebaho merosga aylanib boraveradi. Ana shunday buyuk qadriyatlardan biri mustaqillikdir. Mustaqillik nafaqat siyosiy erkinlik, balki xalqning asriy orzu-armonlari ro‘yobi, milliy g‘urur va iftixor manbai, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlash imkoniyatidir. Bugun biz erishilayotgan har bir yutuq, har bir yangilanish va har bir bunyodkorlik ishida hurlikning ahamiyatini his qilamiz.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi nishonlanayotgan bugungi kunda yurtimiz bosib o‘tgan sharaflı taraqqiyot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, mamlakatimiz ulkan siyosiy va iqtisodiy yutuqlarga erishganining guvohi bo‘lamiz. Ushbu davr davomida mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘naviy sohalarida katta qadamlar tashladi. Eng muhimi, xalqimizning dunyoqarashi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi va yurt taqdiriga daxldorlik hissi yanada mustahkamlandi.

Qadimiy va navqiron yurtimizda barpo etilayotgan zamonaviy shaharlar, obod qishloqlar, ilm-fan, ta‘lim va texnologiyalar sohasidagi yangilanishlar – bularning barchasi inson qadriini ulug‘lash, xalq farovonligini ta‘minlash yo‘lidagi ezgu ishlar samarasi.

Ayniqsa, **mustaqillik yillarida yosh avlod masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.** Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ta‘lim olishi, kasb egallashi va o‘z iqtidorini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilib, qonun bilan mustahkamlab qo‘yildi.

Jumladan, Qonunchilik palatasi

tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ularning intellektual va ma‘naviy salohiyatini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘ldi. Ushbu hujjat asosida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta‘minlash, ta‘lim va tarbiyasiga e‘tibor qaratish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida har bir mahallada yoshlar bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.** Yoshlar yetakchilari instituti tashkil etilib, yigit-qizlarning muammolarini o‘rganish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, bandligini ta‘minlash va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etildi.

Bugun mamlakatimizda yoshlarning bilim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlar ko‘lami yildan yilga kengaymoqda. **Yangi maktablar, Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan ta‘lim**

muassasalari, zamonaviy oliygohlar barpo etilib, yoshlarga dunyoning ilg‘or tajribalarini o‘rganish uchun sharoit yaratilmoqda.

Ayniqsa, “Yoshlar daftari” tizimi orqali ehtiyojmand, ishsiz yoki qo‘llab-quvvatlashga muhtoj yoshlarga yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu tizim orqali minglab yoshlarga kasb-hunar o‘rganish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash, ta‘lim olish va o‘z loyihalarini amalga oshirish uchun imkoniyatlar berildi.

Yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar ajratilayotgani ham ularning hayotda o‘z o‘rnini topishida muhim omil bo‘lmoqda. Bugun oddiy bir g‘oya bilan boshlangan kichik loyihalar orqali o‘z biznesini yo‘lga qo‘yayotgan, yangi ish o‘rinlari yaratayotgan yoshlar safining kengayib borayotgani ana shu imkoniyatlarning amaliy natijasidir.

Shu bilan birga, mamlakatimizda muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ham yoshlar siyosatidagi izchil islohotlarning amaliy ifodasidir. Bugun harbiy xizmat nafaqat Vatan himoyasi yo‘lidagi muqaddas burch, balki yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, yetakchilik fazilatlarini shakllantirishi va hayotda

mustahkam o‘rin topishiga xizmat qilayotgan muhim hayot maktabiga aylanmoqda.

Xususan, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab, muddatli harbiy xizmatchilar uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar joriy etildi. **Endi askarlar harbiy xizmatni o‘tash bilan bir vaqtda oliy ta‘lim muassasalariga hujjat topshirib, masofaviy ta‘lim shaklida tahsil olish imkoniga ega bo‘ladilar.** Harbiy qismlarda oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda maxsus tayyorlov kurslari tashkil etilib, yoshlarning bilim olishi va kelajakda munosib mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun zamonaviy ta‘lim muhiti yaratilmoqda.

Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilingan muddatli harbiy xizmatchilar harbiy fakultet talabalariga tenglashtirilib, o‘qishni muvaffaqiyatli yakunlaganidan so‘ng zaxiradagi leytenant harbiy unvonini olish huquqiga ega bo‘ladi. Bu esa harbiy xizmat bilan oliy ta‘lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yanada mustahkamlab, yoshlarning kelgusi faoliyati uchun yangi istiqbollar eshigini ochmoqda.

Ayniqsa, **“Bitta askar – bitta kasb” tamoyili asosida tashkil etilgan 3–6 oylik kasbiy o‘quv kurslari har bir xizmatchining muayyan mutaxassislik egasi bo‘lib yetishishiga xizmat qilmoqda.** Ushbu kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan askarlarga davlat namunasidagi sertifikatlar berilishi ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirib, kelajakda munosib ish o‘rniga ega bo‘lishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatni ado etib qaytgan yoshlarning fuqarolik hayotiga tez va muvaffaqiyatli moslashuvini ta‘minlashga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Endi xususiy sektorda mehnat faoliyatini boshlash yoki yangi kasb egallash istagida bo‘lgan sobiq harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash xarajatlari Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan vaucher asosida qoplab beriladi. Bu esa yoshlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashi,



BIRLASHGAN XALQ

tadbirkorlik va ishbilarmonlik faoliyatini boshlashi hamda hayotda mustaqil qadam tashlashi uchun yana bir muhim imkoniyatdir.

Shu tariqa, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati ta'lim, bandlik, tadbirkorlik va harbiy sohalarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilmoqda. Bu ezgu islohotlar yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, Vatanga sadoqat ruhini mustahkamlash hamda ularning jamiyat hayotida faol va munosib o'rin egallashini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, **bugun armiya saflarida xizmat qilayotgan yoshlar nafaqat yuksak harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan askar, balki keng dunyoqarashli, zamonaviy bilim va kasb-hunar sohibiga aylanmoqda.** Bu esa mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, yoshlarning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish va ularning kelajagiga sarmoya kiritish

davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganining yaqqol namunasidir.

Mustaqillikning 35 yilligi arafasida mamlakatimizda kechayotgan o'zgarishlarga nazar tashlar ekanmiz, boshqa sohalar singari mudofaa salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar ko'lami yanada kengaymoqda. Buning asosida esa xalqimizning birligi, tinchlik va barqarorlik, Vatan ravnaqi yo'lidagi umumiy maqsad mujassam.

Bejiz mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan ezgu g'oya asosida nishonlanayotgani yo'q. Zero ushbu g'oya yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining yagona maqsad yo'lida birlashganini, Vatan taqdiri uchun daxldorlik hissi yanada yuksalayotganini hamda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida har bir fuqaroning munosib hissasi borligini ifodalaydi.

Chunki Vatan taraqqiyoti faqat davlat yoki ma'lum bir sohaning emas, balki har bir fuqaroning mehnati, bilim va tashabbusi bilan ta'minlanadi. **Quruvchi ham, olim ham, dalani obod qilayotgan dehqon ham, chegaralarimiz**

daxlsizligini ta'minlayotgan harbiy xizmatchi ham, ilm-fan cho'qqilarini zabt etayotgan yoshlar ham yagona maqsad – Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilmoqda.

Vatan himoyachisi bo'lish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish, ilm-ma'rifat, halol mehnat va yuksak vatanparvarlik bilan yangi hayotni barpo etish bugungi avlod zimmasidagi eng katta sharaflari va mas'uliyatli vazifadir.

Zero yagona Vatan, yagona xalq bo'lib harakat qilsak, Yangi O'zbekistonning yangi hayoti va buyuk kelajagini albatta, birgalikda barpo etamiz. Mustaqillik bergan eng katta ne'mat ham ana shunda o'z taqdirimiz, o'z kelajagimiz va o'z taraqqiyot yo'limizni o'z qo'limiz bilan yaratayotganimizdadir.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV
"Vatanparvar"**



Mahorat

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, zamonaviy tahdid va xavf-xatarlar har bir davlatdan mudofaa salohiyatini muntazam mustahkamlab borishni talab etmoqda. Mamlakat xavfsizligi, xalq osoyishtaligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlash, avvalo, harbiy xizmatchilarning yuksak kasbiy tayyorgarligi, jangovar shayligi va Vatanga cheksiz sadoqatiga tayanadi.



KUCHLI ARMIYA TINCHLIK KAFOLATIDIR

Sharqiy harbiy okrug Andijon garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari ishtirokida "Andijon" dala-o'quv maydonida navbatdagi jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari yuqori saviyada tashkil etildi. O'quvlar davomida yigitlarning nazariy bilimlarini yanada boyitish, amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish, zamonaviy jang sharoitlarida mustaqil va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilandi.

Tong sahardan boshlangan mashg'ulotlarda dala-o'quv maydonida haqiqiy jangovar muhit yaratildi. Komandirlar tomonidan berilgan har bir buyruq qat'iy intizom asosida bajarildi, har bir harakat puxta reja va aniq hisob-kitob bilan amalga oshirildi. Harbiy xizmatchilar zamonaviy jangovar vaziyatlarga maksimal darajada yaqinlashtirilgan sharoitlarda harakat qilib, murakkab taktik vazifalarni bajarish, razvedka-qidiruv ishlarini olib borish, shartli dushman harakatlarini aniqlash va zararsizlantirish bo'yicha amaliy mashqlarni muvaffaqiyatli ado etdi.

Mashg'ulotlar davomida guruh tarkibida harakatlanish, bir-birini o't bilan qo'llab-quvvatlash, yashirin siljish, qulay o't ochish marralarini egallash, tezkor manyovrlarni amalga oshirish hamda jang maydonida o'zaro hamkorlikni ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Har bir mashq harbiy xizmatchilardan nafaqat jismoniy chiniqqanlikni, balki yuksak iroda, ruhiy barqarorlik va sovuqqonlikni ham talab etdi.

O'qotar qurollardan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarda nishonni tezkor aniqlash, masofani to'g'ri baholash, mo'ljalga olish, turli sharoitlarda samarali o't ochish ko'nikmalari mustahkamlandi.

Aytish kerakki, bugungi o'quvlarda erishilgan har bir muvaffaqiyatli o'q uzish ortida uzoq mehnat, tinimsiz mashg'ulot va yuksak mas'uliyat mujassam ekani yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Shuningdek, mashg'ulotlarda zamonaviy jangovar vaziyatlarda bo'linmalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik, tezkor axborot almashinuvi, shartli dushmanga qarshi qat'iy va muvofiqlashtirilgan harakatlarni tashkil etish masalalari ham puxta ishlab chiqildi. Real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan o'quv epizodlari harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini yanada mustahkamlab, ularda har qanday vazifani sharaf bilan bajarishga bo'lgan ishonchni kuchaytirdi.

Dala-o'quv maydonida hukm surgan muhitda faqat qurol emas, balki jasorat, matonat, intizom va Vatanga sadoqat ham charxlandi. Har bir bajarilgan mashq, har bir

alohida e'tibor qaratiladi. Ta'kidlash kerakki, bunday yondashuv shaxsiy tarkibning bilim va tajribasini boyitishga xizmat qiladi. Boisi har bir harbiy xizmatchi o'z ustida tinmay ishlasa, bilim va mahoratini muntazam oshirsa, Vatan himoyasiga doimo munosib hissa qo'sha oladi. Kasbiy charxlanganlik – bu bir kunlik natija emas, balki uzluksiz mehnat va izlanish mahsuli. Ana shunday intilish harbiy xizmatchini haqiqiy professionalga aylantiradi va mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlashda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Ha, bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchi o'z zimmasiga yuklatilgan ulkan mas'uliyatni chuqur anglagan holda

isbotini topdi. Topshiriqlarda harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati, jismoniy tayyorgarligi va jangovar shayligini yana bir pog'onaga ko'tarildi, desak, xato bo'lmaydi. Bunday mashg'ulotlar shaxsiy tarkibning jangovar salohiyatini oshirish, bo'linmalar har qanday vaziyatda ishonchli va samarali harakat qilish qobiliyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki jangovar tayyorgarlik oddiy mashg'ulot emas. Bu – Vatan taqdiri uchun mas'uliyat, xalq tinchligi uchun fidoyilik, yurtning himoya qilish yo'lida doimiy izlanish va o'z ustida ishlash maktabi. Ana shunday mashg'ulotlarda chiniqqan, mahorati sayqal topgan va irodasi toblangan azamatlar sarhadlar daxlsizligi, xalq tinchligi



bosib o'tilgan to'siq, har bir aniq nishon ertangi kun xavfsizligi yo'lida qo'yilgan yana bir mustahkam qadam edi.

– Har bir mashg'ulot muayyan maqsad asosida rejalashtiriladi, – deydi podpolkovnik Rashid Ochilov. – Unda harbiy xizmatchilarning taktik fikrlashi, jamoaviy harakat qilish madaniyati, turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati va o'z vazifasini aniq bajarishga



jangovar tayyorgarligini uzluksiz takomillashtirib bormoqda.

"Andijon" dala-o'quv maydonida o'tkazilgan ushbu mashg'ulotlarda ham bu o'z

yo'lida doimo sergak va shay turib xizmat qilmoqda. Zotan, kuchli armiya tinchlikning eng ishonchli kafolati, harbiy mahorat esa ana shu qudratning mustahkam poydevori.

**Kapitan
Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**



VATAN HIMOYASI — SHARAFLI BURCH

Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan muddatli harbiy xizmatchilar jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda takomillashtirib bormoqda. Shimoli-g'arbiy harbiy okrug "Nukus" dala-o'quv maydonida tashkil etilgan navbatdagi amaliy mashg'ulotlar ham ularning kasbiy mahorati, jismoniy chiniqishi va ruhiy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Dala sharoitida o'tkazilgan mashg'ulotlarda harbiy xizmatchilar zamonaviy jangovar harakatlarni bajarish, qurol-aslahalardan samarali foydalanish, bo'linmalar tarkibida hamjihatlikda harakat qilish hamda murakkab vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish bo'yicha o'z mahoratlarini namoyon etdi. Mashg'ulotlar jangovar sharoitga yaqinlashtirilgan tarzda tashkil etilib, askarlarning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan boyitishga alohida e'tibor qaratildi.

O'quvlar davomida vazifalarni belgilangan me'yorlar asosida bajarish, to'siqlardan o'tish, mudofaa va hujum elementlarini bajarish, shuningdek shaxsiy tarkibning jamoaviy harakatlari sinovdan o'tkazildi.

"Nukus" dala-o'quv maydoni zamonaviy infratuzilmasi, turli yo'nalishdagi o'quv shaharchalari va amaliy mashg'ulotlar uchun yaratilgan qulay sharoitlari bilan harbiy xizmatchilarni puxta tayyorlashda muhim o'rin tutmoqda.



Bu yerda artilleriya, muhandislik, aloqa, otish, topografiya, radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilishi askarlarning har tomonlama toblanishiga xizmat qilmoqda.

Shu kuni harbiy xizmatchining jismoniy tayyorgarligi, ruhiy bardoshi, tezkor fikrlashi va belgilangan vazifalarni aniq bajarish ko'nikmalari baholab borildi. Tajribali ofitser va instruktorlar tomonidan berilgan tavsiyalar, yo'l-yo'riqlar hamda amaliy ko'rsatmalar askarlarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qildi.

Bugungi murakkab va tez o'zgarayotgan dunyoda mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini yuqori darajada saqlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois har bir dala



mashg'uloti nafaqat navbatdagi o'quv jarayoni, balki Vatan himoyachilarini chinakam jasorat, matonat va fidoyilik ruhida tarbiyalaydigan muhim maktab vazifasini o'tamoqda.

Yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lida xizmat qilayotgan askarlar uchun bunday mashg'ulotlar kelgusidagi xizmat faoliyatining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Jangovar tayyorgarlikda toblangan yurt o'g'lonlari har qanday vaziyatda ona Vatan manfaatlarini himoya qilishga shay ekanini amaliy mashg'ulotlar davomida yana bir bor namoyon etdi. Bu esa Yangi O'zbekiston Qurolli Kuchlarining qudrati, harbiy xizmatchilarning yuksak tayyorgarligi va Vatanga sadoqatining yorqin ifodasidir.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

ARMIYA: KECHA VA BUGUN

Har bir buyuk ishning ortida mashaqqatli boshlanish nuqtasi turadi. Bugun O'zbekiston Qurolli Kuchlari mintaqaning eng qudratli armiyalaridan biriga aylangan bo'lsa, uning ilk poydevori 1992-yilning murakkab sharoitida, fidoyi yurtdoshlarimizning shijoati bilan yaratilgan edi.

Tahririyatimiz mustaqillik ayyomiga qadar gazetamizning har bir sonida "VATANPARVAR XRONIKASI" rukni bilan 1992-yilda chop etilgan davr ranglari va o'zbek armiyasining ilk kunlarini aks ettiruvchi maqolalarni qayta e'lon qilishni boshlaydi.

Bu maqolalar o'zbek harbiy jurnalistikasining xazinasi va milliy armiyamiz shakllanishining jonli xronikasidir.

O'ZBEK ASKARINING BIRINCHI QASAMYODI

1992-yildagi tantanali marosimdan tarixiy reportaj.

Bundan roppa-rosa 34 yil avval – mustaqilligimizning ilk, og'ir va ayni paytda sharaflil kunlarida gazetamiz sahifalarida bir tarixiy maqola e'lon qilingan edi. O'shanda yigitlarimiz O'zbekiston Qurolli Kuchlari tarixida ilk bor O'ZBEK tilida, mustaqil davlat va uning Prezidentiga sodiqlik qasamyodini qabul qilgandi. O'sha kungi hayajon, umid va mashaqqatlar bugungi tinchlik va qudratimizning poydevori bo'lgandi.

E'tiboringizga "Vatanparvar" gazetasida chop etilgan tarixiy reportajni asl holida havola etamiz.

XALQQA VA PREZIDENTGA SODIQLIK QASAMYODI

1992-yil 17-iyul, 159-son.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida birinchilardan bo'lib, 1992-yilgi bahorgi chaqiruv harbiy xizmatchilari polkovnik V. Richkov qo'mondonlik qilayotgan harbiy qismda qasamyod qabul qildilar. Marosimda mudofaa vaziri general-leytenant R. Ahmedov, mudofaa vazirining shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha yordamchisi podpolkovnik A. Rashidov va aloqa qo'shinlari boshlig'i polkovnik K. Belov ishtirok etdi.

Maydon uzra tantanali qasamyod so'zlari yangramoqda. Yosh jangchi-alochachilar o'z xalqiga va Prezidentiga sodiqlik haqida qasamyod qilmoqdalar. Respublika tarixida ilk bor yuz berayotgan bu marosimga jangchilarni tabriklash uchun Ikkinchi jahon urushi faxriylari ham tashrif buyurgan.

Shaxsiy tarkib oldida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-leytenant R. Ahmedov tantanali nutq so'zladi:

– Aziz do'stlar! Barchangiz tarixiy voqea ishtirokchisi bo'lib turibsiz. Sizlar mamlakat tarixida birinchi marotaba O'zbekiston xalqiga va uning Prezidentiga sodiqlikka qasamyod qabul qilmoqdasiz...

R. Ahmedov jangchilarga konstitutsiyaviy burchni eslatib, yig'ilganlarni bayram bilan tabrikledi. Bu kun yosh askarlar yodida bir umrga muhrlanib qoladi. Buyruq yangraydi: "Tantanali marsh bilan..." Mudofaa vazirligi orkestr xizmati boshlig'i, ofitser P. Makarov tomonidan bastalangan



"Mustaqillik" harbiy marshi sadolari ostida askarlar shaxdam qadamlar bilan tribuna yonidan o'tadilar. Ularning qo'llaridagi qurol ko'kraklariga mahkam bosilgan, avtomatlarning sovuq yaltirashi fonida har bir askarda qizil chinnigul alvon bo'lib tovlanadi – bu jonajon davlat himoyasi ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat beruvchi ramz. Bayram O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy ashula va raqs ansamblining chiqishi bilan yakunlandi.

Qasamyod qabul qilingan kun nafaqat askarlar uchun, balki ularning ota-onalari, ko'plab qarindosh-urug'lari uchun ham katta bayramga aylandi. Yosh jangchilar bugun qo'llarida qurol bilan o'z davlati manfaatlarini, uning ozodligi va mustaqilligini himoya qilishga otlandilar.

Bugun qo'lida qurol tutganlar kimlar? Ular respublikaning barcha viloyat va tumanlaridan kelgan turli millat vakillaridir.

– Men Qo'qondanman, – deydi oddiy askar X. Qosimov, – o'z xalqimga xizmat qilish men uchun katta baxt.

– Men butun umr Sirdaryoda yashaganman, tatar bo'lsam-da, bu zamin men uchun qadrlidir, – deya safga ko'z yugurtirdi oddiy askar A. Useynov. – Shu bois uni xuddi o'z Vatanimdek himoya qilaman.

Marosimda ishtirok etgan respublika gazetalari jurnalistlaridan birining savoliga javob berar ekan, O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-leytenant R. Ahmedov tarixda ilk bor o'zbek harbiy xizmatchilariga ona tilida qasamyod qabul qilish imkoniyati berilganini ta'kidladi.

Vazir askarlarning ota-onalariga sog'liq va baxt tiladi. "O'g'illarini xizmatdan keyin kutishsin, kelinlar tayyorlashsin", dedi R. Ahmedov.

O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha yordamchisi podpolkovnik A. Rashidov "Vatanparvar" gazetasi muxbirlari bilan suhbatda shunday dedi:

– Bugun qasamyod qabul qilganlar bir yildan keyin haqiqiy askar bo'lib yetishadi. Ishonchim komilki, ular Qurolli Kuchlarimizning peshqadamlari bo'lishadi va keyingi harbiy xizmatchilar avlodi ulardan o'rnak oladi.

– Harbiy qasamyod qabul qilish bu Qurolli Kuchlarda shakllanayotgan dastlabki an'analardan biridir. Sizningcha, armiyada yana qanday an'analar, ritullar bo'lishi kerak?

– Hozirgi vaqtda qismning Jangovar bayrog'i to'g'risidagi nizom ishlab chiqilmoqda. Dastlabki bosqichda bayroqlar avvalgidek qoladi, keyinchalik esa O'zbekiston Respublikasi harbiy qismlarining Jangovar bayroqlari bo'ladi.

Qism komandiri polkovnik V. Richkov esa yosh askarlar haqida shunday fikrda:

– Yosh chaqiriluvchilar O'zbekiston Respublikasining turli tumanlari va viloyatlaridan xizmat qilish uchun kelishdi. Yigitlar harbiy burchni to'g'ri anglaydilar. Eng muhimi, ularda haqiqiy mutaxassis bo'lishga intilish bor. Ular hozirdanoq yaxshi natijalar ko'rsatmoqda. Ishonchim komilki, bu yigitlardan Vatanning munosib himoyachilari yetishib chiqadi.

– Bayramda faqat yaxshi narsalar haqida gapirgiring keladi. Ammo siz haddan tashqari optimistik manzarani chizmadigizmi? Nahotki, hamma narsa shunday ajoyib bo'lsa, muammolar yo'qmi?

– Muammolar bor. Ular asosan ayrim yosh askarlarning intizomi yetarli emasligi bilan bog'liq. Bu muammolarni hal qilish yo'llarini bilamiz. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining yaqinda bo'lib o'tgan sessiyasida mudofaa masalalari bo'yicha qabul qilingan qonunlar yoshlarning Vatanni himoya qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini to'g'ri tushunib yetishlariga umid bag'ishlaydi.

L. Simonyan – askar onasi:

– Men ilk bor o'z xalqi va Prezidentiga sodiqlikka qasamyod qabul qilayotgan barcha askarlarga, O'zbekiston farzandlariga xizmatda ulkan muvaffaqiyatlar, sog'liq, omonlik va musaffo osmon tilayman.

O'zbekiston Respublikasi xalq artisti Yayra Abdullayeva, Zebo G'aniyeva nomidagi konsert fond brigadalari ansambli:

– Qasamyod qabul qilish rituali menda juda kuchli taassurot qoldirdi. Bu shunchalik hayajonli bo'ldiki, insonda o'zgacha tuyg'ularni uyg'otadi. Men askarlarimizga sog'liq tilayman va ilohim, osmonimiz musaffo bo'lsin, biz ko'rgan ushbu la'nati urush hech qachon bo'lmasin. Men dugonalarim bilan bu



yerga askarlarni tabriklash va ularga o'z hayratimni izhor qilish uchun keldim.

Mayor N. Shemendyun uchun bu kun ikki karra quvonchli bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-leytenant R. Ahmedov unga muddatidan oldin "podpolkovnik" unvonini topshirdi. Albatta, biz ofitser bilan suhbatlashmay keta olmadik.

– Sizni qo'shaloq bayram – navbatdagi harbiy unvonning muddatidan oldin berilishi va qo'l ostingizdagilarning qasamyod qabul qilgan kuni bilan tabriklaymiz. Ayting-chi, siz qisqa vaqt ichida ulardan haqiqiy askar tayyorlay olasizmi?


– Yosh tarkib juda yaxshi. Oddiy askarlar Sultonov, Sotvoldiyev hozirdanoq ijro intizomi va xizmatga bo'lgan munosabati bilan boshqalardan ajralib turishibdi. Ishonchim komilki, ular va ularning xizmatdoshlari Vatanning munosib himoyachilari bo'lishadi.

Mana, bayram ham yakunlandi. Ehtimol, oradan bir necha yil o'tgach, fotoreportyorimiz S. Aminov olgan fotosuratlar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi stendlaridan birida paydo bo'lar. Chunki bu voqea allaqachon tarixga aylandi.

Maqola mualliflari va fotosuratchi S. Aminovning "Oradan bir necha yil o'tgach, bu suratlar muzey stendlaridan joy olar" degan ezuq bashorati bugun to'liq haqiqatga aylangan. Oradan 34 yil o'tdi. O'sha kuni qo'lida qurol, ko'kragida qizil chinnigul bilan ilk bor ona tilida qasamyod qilgan oddiy askarlar – Qosimov, Useynov, Sultonov va Sotvoldiyev bugun sochlariga oq oralagan, nevaralariga tinchlik qadrlini o'rgatayotgan otaxonlardir. Mudofaa vaziri aytgan o'sha "kelinlar" esa allaqachon farzandlarini armiyaga kuzatgan baxtli onalar, buvilardir.

Ushbu reportaj milliy bayroq va harbiy nizomlar yangi ishlab chiqilayotgan og'ir va tahlikali kunlarda Vatanga qasamyod qilgan yigitlar haqida. Ularning "Mustaqillik" harbiy marshi sadolari ostida boshlangan yo'li bugun O'zbekiston armiyasini mintaqadagi eng qudratli va zamonaviy harbiy kuchga aylantirdi.

Furqat ERGASHEV tayyorladi.



Yetakchi xorijiy davlatlar armiyalarida inson resurslarini boshqarish (HRM) tizimi oddiy ma'muriy funksiyadan jangovar shaylikni ta'minlovchi eng asosiy strategik yo'nalishga aylanib ulgurdi.

Global harbiy nizolarning xarakteri tubdan o'zgarib, **gibrid mojarolar, uchuvchisiz uchish, robotlashtirilgan tizimlar, kiberhujumlar va sun'iy intellekt (AI)** texnologiyalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda zamonaviy armiyaning qudrati nafaqat qurol-yarog' soni, balki uni boshqaruvchi kadrlarning intellektual salohiyati bilan belgilanadi.

Biroq ko'pgina davlatlarda amaldagi harbiy kadrlar tizimida quyidagi tizimli muammolar saqlanib qolgani kuzatilmoqda:

An'anaviy yondashuv: nomzodlarni saralashda intellektual va texnologik ko'nikmalardan ko'ra ko'proq jismoniy tayyorgarlikka urg'u berilishi.

Raqamli integratsiya darajasining pastligi: harbiy xizmatchilarning shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarini (*bazasini*) tahlil qiluvchi yagona intellektual HR-platfomaning mavjud emasligi.

"Iqtidorlar oqimi" cheklanganligi: fuqarolik sektoridagi yuqori malakali IT va muhandislik kadrlarini harbiy xizmatga jalb qilishning jozibador mexanizmlarining mavjud emasligi.

Bunday sharoitlarda xorijiy davlatlar (*AQSh, Xitoy, Ozarbayjon kabi*) armiyalari inson resurslarini rivojlantirishda quyidagi innovatsion strategiya va istiqbolli modellardan foydalanmoqda.

• **AQSh (Talent Marketplace):** har bir harbiyning raqamli profili (*KSB-P: Knowledge, Skills, Behaviors, and Preferences*) asosida lavozimlarni shaffof taqsimlash tizimi mavjud. Bu tizim komandirlar va nomzodlar ehtiyojlarini raqamli algoritmlar orqali moslashtiradi.

• **Xitoy (professionallashtirish):** "Armiyani intellektuallashtirish" konsepsiyasi doirasida armiya tarkibida universitet bitiruvchilari ulushi keskin oshirilgan va ularning o'qish kontraktlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

• **Ozarbayjon** oliy harbiy ta'lim muassasalari yagona Milliy mudofaa universiteti tarkibiga birlashtirilib, kichik komandirlar tarkibining taktik mustaqilligi oshirilmoqda.

Davlatlar kesimida batafsil tahlil natijalarini keltirish mumkin:

AQSh: "Iqtidorlar bozori" (*Talent Marketplace*). AQSh armiyasi kadrlarni an'anaviy ravishda yuqoridan buyruq bilan taqsimlash tizimidan voz kechgan.

KSB-P tizimi: har bir ofitser va serjantning nafaqat unvoni, balki uning bilimi, ko'nikmalari, xulq-atvori va shaxsiy qiziqishlari raqamli bazaga kiritiladi.

ATAP (Army Talent Alignment Process): bu tizim xuddi mehnat birjasi kabi ishlaydi. Komandirlar o'z bo'linmalaridagi bo'sh lavozimlarga kerakli talablarni qo'yadi, ofitserlar esa o'zlariga mos keladigan lavozimlarga nomzod sifatida ariza beradi. Bu iqtidorlarning o'z joyini topishini 80 foizgacha yaxshilashni ta'minlaydi.

Kadrlarning fuqarolik jamiyati bilan integratsiyasi: harbiy xizmatni o'tagan yuqori texnologik kadrlar keyinchalik mamlakat iqtisodiyoti va startap ekotizimining asosini tashkil qiladi.

Xitoy: armiyani professionallashtirish. Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasi (XXOA) so'nggi yillarda oddiy askarlar sonini kamaytirib, kadrlar sifatini oshirishga urg'u bermoqda.

Oliy ma'lumotlilarni armiyaga jalb qilish: XXOAga chaqiriluvchilar va shartnomaviy xizmatchilar orasida universitet bitiruvchilari ulushi keskin oshirildi. Bitiruvchilarning kontraktlarini davlat tomonidan to'lash tizimi yo'lga qo'yilgan.

"Intellektuallashtirish armiya": sun'iy intellekt, kognitiv urushlar va kibermakonda ishlay oladigan olim-harbiylar qatlamini shakllantirish uchun harbiy-ilmiy akademiyalar tizimi shakllantirildi.

Ozarbayjon: zamonaviy standartlarga moslashtirish. Ozarbayjon o'z armiyasining kadrlar va boshqaruv tizimini NATO standartlari modeli asosida isloh qilmoqda.

Milliy mudofaa universiteti: tarqoq harbiy ta'lim muassasalari yagona Milliy mudofaa universiteti tarkibiga birlashtirildi. Bu esa ofitserlar tarkibini tayyorlash sifatini bir xil zamonaviy standartga keltirish imkonini berdi.

Kommando bo'linmalari tajribasi: yangi turdagi "aqlli" qurollar bilan ishlay oladigan, tezkor qaror qabul qiluvchi kichik bo'linma komandirlarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu, o'z navbatida, komandirlar tarkibining qaror qabul qilish mustaqilligini (*gorizontal boshqaruv*) oshirdi.

Bugungi harbiy nizolar xususiyatlaridan kelib chiqib, ko'pgina xorijiy davlatlar Qurolli Kuchlarida inson resurslarini boshqarish tizimini rivojlantirish uchun **quyida keltirilgan istiqbolli yo'nalishlarni o'rganib chiqmoqda:**

Kadrlarni raqamli boshqarish va taqsimlash tizimiga o'tish.

Iqtidorlarni avtomatik taqsimlash (algoritmik HRM): lavozimlarga tayinlashda ilg'or tajribalarga asoslanib, shaxsiy majburiyatlar va ko'nikmalarni vakansiya talablari bilan avtomatlashtirilgan dastur orqali moslashtirish. Har bir harbiy xizmatchining jismoniy holatidan tashqari, uning IT-ko'nikmalari, xorijiy tillarni bilishi va psixologik intellektini raqamli bazada aks ettirish.

Raqamlashtirish va HR-texnologiyalar (HR Tech).

Jarayonlarni avtomatlashtirish: ishga qabul qilish, hujjat aylanishi va hisobotlarni raqamli tizimlarga o'tkazish. **Sun'iy intellekt (AI):** rezyumelarni saralash, nomzodlar bilan birlamchi suhbatlarni botlar orqali o'tkazish.

HR-analitika: xodimlarning qo'nimsizligi, ish samaradorligi va motivatsiyasini katta ma'lumotlar (*Big Data*) asosida prognoz qilish. Maxsus dasturiy ta'minotlar orqali har bir harbiy xizmatchining jismoniy, tibbiy va kasbiy ko'rsatkichlari bazasini (*Big Data*) yuritish.

– **Yuqori texnologik yo'nalishlar uchun "Maqsadli rekrutning".**

Kibervatanparvarlik dasturi: fuqarolik universitetlarining IT, matematika va muhandislik yo'nalishidagi eng iqtidorli

talabalarini aniqlash va ularni yuqori texnologik bo'linmalarga (*kiberxavfsizlik, robot tizimlar, dronlar*) shartnoma asosida jalb qilish.

– **Harbiy ta'lim tizimini transformatsiya qilish va grantlar tizimi:**

VR/AR simulyatsion markazlari: ta'lim jarayoni va poligon mashg'ulotlarida virtual reallik texnologiyalari ulushini oshirish. Harbiy ta'limda simulyatsion va virtual (*VR*) texnologiyalar ulushini keskin oshirish.

Harbiy soha uchun muhim bo'lgan mutaxassislik bo'yicha o'qiyotgan talabalarning kontrakt mablag'larini Mudofaa vazirligi hisobidan to'lash va evaziga ularning armiyada 3-5 yil xizmat qilish majburiyatini belgilash.

– **Iqtidorlarni boshqarish (Talent Management).**

Iqtidorlarni jalb qilish: mehnat bozorida kuchli brend (*Employer Branding*) yaratish orqali eng malakali mutaxassislarni jalb etish.

Uzluksiz ta'lim: xodimlarni qayta tayyorlash (*Reskilling*) va malakasini oshirish (*Upskilling*) tizimlarini yo'lga qo'yish. **"Umr bo'yi ta'lim" (Lifelong Learning)** konsepsiyasi. Texnologiyalar juda tez o'zgarayotgan davrda harbiy xizmatchilarning bilimlari va ko'nikmalari eskirib qolmasligi lozim.

Shaffof karyera va vorislikni rejalashtirish: kadrlar zaxirasi (*Talent Pool*) bazasini yaratish va rahbarlik lavozimlariga xodimlarni tizimli tayyorlash.

Rahbarlik lavozimlariga faqat jangovar ko'rsatkichlari, tahliliy qobiliyati va shaxsiy yutuqlari (*meritokratiya – munosiblarni tanlash prinsipi*) yuqori bo'lgan kadrlarni lavozimda ko'tarishning raqamli reytingini yaratish.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, jahon harbiy tajribasi zamonaviy armiyaning qudrati shaxsiy tarkibning sanog'ida emas, balki **kadrlarning intellektual darajasi va ularning vaziyatga moslashuvchanligida** ekanini ko'rsatmoqda.

Bu ma'noda harbiy kadrlar siyosatini raqamlashtirish, intellektual salohiyatga urg'u berish va ijtimoiy motivatsiyani kuchaytirish – davlat mudofaa qobiliyatini oshirishning maqbul yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Istiqbolli strategiya va innovatsion dasturlarni amalga oshirish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

Yuqori texnologik qurollarni boshqara oladigan professional, raqobatbardosh kadrlar zaxirasi shakllanadi;

kadrlarni joy-joyiga tayinlashda xatoliklar, korrupsion xatarlar, inson omili (*aralashuvi*) minimallashtiriladi;

harbiy ta'lim va qo'shinlar tayyorgarligi uchun sarflanadigan byudjet mablag'lari maqsadli va tejamkor sarflanishiga erishiladi.

Azizjon TOIROV,
Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi bosh mutaxassisi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



Bitta askar – bitta kasb

YOSHLAR KELAJAGIGA MUSTAHKAM POYDEVOR

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bu ezgu maqsadlar Qurolli Kuchlar tizimida ham izchil amalga oshirilayotgani harbiy xizmat mazmunini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Endilikda muddatli harbiy xizmat nafaqat Vatan himoyasiga tayyorgarlik maktabi, balki hayot maktabi, kasb va mahorat maskaniga ham aylanmoqda.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug Nukus garnizonidagi harbiy qismlarda xizmat qilayotgan muddatli harbiy xizmatchilar ana shunday ulkan imkoniyatlardan samarali foydalanmoqda. Ular harbiy xizmat bilan bir qatorda, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta o'zlashtirib, kelajakdagi mustaqil hayotga ishonchli qadam qo'ymoqda.

Shu maqsadda Nukus garnizonida tashkil etilgan o'quv markazlarda ixtisoslashgan texnikum o'qituvchilari tomonidan muntazam nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Ta'lim jarayonlari zamonaviy mehnat bozori talablari, iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlari hamda harbiy xizmatchilarning qiziqishlari asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, har bir tinglovchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mashg'ulotlar davomida yoshlar axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, mashinasozlik va boshqa istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha chuqur nazariy bilim hamda mustahkam amaliy ko'nikmalarni egallamoqda. Malakali pedagoglar tomonidan ilg'or ta'lim metodlari asosida tashkil etilayotgan darslar harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlik fazilatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarning texnikumning zamonaviy moddiy-texnik bazasida tashkil etilgani ta'lim samaradorligini yanada oshirmoqda. Zamonaviy laboratoriyalar, maxsus ustaxonalar va innovatsion o'quv jihozlari yoshlarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, kasb sirlarini real ishlab chiqarish muhitiga yaqin sharoitda puxta egallash imkonini



bermoqda. Bunday yondashuv esa ularning mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo'lib shakllanishiga mustahkam asos yaratmoqda.

Bugun harbiy xizmatni o'tayotgan yigitlar faqatgina jangovar tayyorgarlikni mukammal egallab qolmay, balki ertangi hayotda o'z o'rnini topishga xizmat qiladigan zamonaviy bilim va kasblarni ham o'zlashtirmoqda. Bu esa harbiy xizmatning mazmun-mohiyatini yanada boyitib, uni yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar maydoniga aylantirmoqda.

Muddatli harbiy xizmat davomida kasb-hunar egallash tizimi xizmatni yakunlagan yoshlarning bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorlik

faoliyatiga kirib kelishi, ishlab chiqarish korxonalari va turli sohalarda samarali mehnat qilishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Eng muhimi, bu tizim yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlab, ularni zamonaviy bilim va yuksak ma'naviyat egasi sifatida voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Vatanga sadoqat, kasbga muhabbat va ilmga intilish – bugungi harbiy xizmatchining eng muhim fazilatlariga aylanmoqda. Chunki kuchli armiya faqat zamonaviy qurol-yarog' bilangina emas, balki yuksak bilim, keng dunyoqarash va zamonaviy kasb egasi bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan qudratlidir.

Okrugda amalga oshirilayotgan bunday ezgu tashabbuslar inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda ularni zamon

talablariga mos mutaxassis etib tayyorlash borasidagi keng ko'lamli islohotlarning amaliy ifodasidir. Bu tizim orqali harbiy xizmatni o'tab qaytayotgan har bir yigit nafaqat Vatan himoyachisi, balki jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan bilimli, malakali va raqobatbardosh mutaxassis sifatida hayotga yo'llanma olmoqda.

Bugungi bilim – ertangi taraqqiyot garovi, bugungi kasb – kelajak farovonligining kaliti, bugungi harbiy xizmat esa yurt ravnaqi yo'lida fidoyilik, mahorat va bunyodkorlik maktabi. Ana shunday ezgu maqsadlar yo'lida xizmat qilayotgan yoshlar safining tobora kengayib borayotgani esa Yangi O'zbekistonning kuchli armiyasi va porloq kelajagi sari tashlangan ishonchli qadamdir.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati



YANGI ISH JOYIGA PSIXOLOGIK MOSLASHISH: JAMOA VA XODIM KONSEPSIYASI

Bugungi jadal o'zgarishlar va shiddatli mehnat bozori sharoitida har qanday tashkilot yoki tizimning barqarorligi nafaqat uning moddiy-texnik bazasiga, balki kadrlar salohiyati va ularning jamoaga qay darajada integratsiyalashuviga bog'liqdir. Yangi xodimning ish joyiga kelishi shunchaki rasmiyatchilik emas, balki ikki tomonlama murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, u shaxsning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va kadrlar qo'nimsizligining oldini olishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Adaptatsiya – jamoaviy barqarorlik mezonlari. Yangi ish joyiga o'tish har doim o'ziga xos stressli vaziyat va hayajonni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda nafaqat yangi xodim, balki uni qabul qilayotgan jamoa ham muayyan psixologik bosimni his etadi. Zero har qanday sog'lom jamoada o'zaro munosabatlar iyerarxiyasi, yozilmagan qoidalar va hamkasblarning aloqa tizimi allaqachon shakllangan bo'ladi. Yangi odamning kelishi esa ushbu o'rnatilgan tartibga qo'llanilganlik usulini olib kiradi.

Muvaffaqiyatli moslashuv (*adaptatsiya*) bu mehnat munosabatlarining barcha ishtirokchilari bir-biriga ko'nikishi va muhit talablari bilan shaxsning ichki stimullari o'rtasida muvozanat o'rnatilishidir. Agar boshlovchining kutganlari (*karyera istiqboli, munosib ish haqi, jamoaviy muhit*) tashkilot realligiga mos kelmasa, ichki ziddiyat va xavotir yuzaga keladi. Shuning uchun adaptatsiya jarayoni tizimli boshqaruvni talab etadi.

Psixologik va kasbiy adaptatsiya jarayoni o'rtacha 3 oydan 6 oygacha davom etadi, ayrim og'ir vaziyatlarda esa bir yilgacha uzayishi mumkin.

Ilmiy va amaliy tahlillar moslashuvning quyidagi qat'iy xronologik tizimini ko'rsatadi:

Tanishuv bosqichi (1 kundan 1 haftagacha): yangi xodim makon, asosiy xavfsizlik qoidalarini va reglamentlar bilan tanishadi, dastlabki stress darajasi yuqori bo'ladi.

Moslashuv va faol bosqich (1 oydan 3 oygacha): dastlabki vazifalarni bajarish, ustoz (*murabbiy*) ko'magida o'rganish va jamoa muhitiga kirib borish.

Integratsiya va mustahkamlanish (3 oydan 12 oygacha): xodim to'liq mustaqillikka erishadi, kompaniya qadriyatlarini qabul qiladi va unumdorlikka chiqadi.

Assimilyatsiya (12 oydan keyin): xodim jamoaning ajralmas, "o'z" odamiga aylanadi.

Har bir xodim yangi muhitga tushganda o'z psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ikki xil strategiyadan birini tanlaydi:

Passiv moslashuv: xodim mavjud "o'yin qoidalarini"ni so'zsiz qabul qiladi, eski odatlarini tashlab, yangilariga ko'nikadi. Biroq ichki o'zgarishlarning og'riqli kechishi xodimning o'z potensialini to'liq ochishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Faol moslashuv: xodim tizimni o'zgartirishga, unga yangilik olib kirishga intiladi. Bu ko'pincha avtoritar rahbarlar yoki tashkilotga yangicha qon quyish, jarayonlarni isloh qilish uchun kelgan strategik kadrlar tomonidan qo'llaniladi.

Haqiqiy moslashuvchan insonlar vaziyat talab qilganda "Bu mening ishim emas" yoki "Men bu yerda yetakchi emasman" degan cheklovlar yopishib olmaydilar; ular mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga har doim tayyor turadi.

Muvaffaqiyatni tezlashtiruvchi omillar. Kompaniyadagi boshqaruv uslubi (*ayniqsa, qat'iy*

vertikal boshqaruv) yangi kelgan xodimdan yuqori intizom talab qiladi. **Jarayonni muvaffaqiyatli yakunlash uchun quyidagi vositalar joriy etilishi shart:**

Murabbiylik (mentoring): rasmiy qoidalaridan tashqari, ichki muhitni o'rgatuvchi tajribali hamkasb biriktirilishi.

Muntazam qayta aloqa: rahbarning xodim yutuqlari bilan shaxsan qiziqishi, har 1-2 haftada norasmiy suhbatlar va puls-so'rovlar o'tkazishi.


Raqamli ko'mak:

avtomatlashtirilgan moslashuv tizimlari orqali xodimga yo'riqnomalar berish (*lekin bu jonli muloqot o'rmini bosa olmaydi*).

Xodimlarning lavozim darajasiga ko'ra adaptatsiya murakkabligi ham farq qiladi: rahbar xodim butun biznes tizimini to'liq o'rganishi shart bo'lsa, kichik mutaxassis uchun qisqa yo'riqnomaning o'zi yetarli bo'ladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, samarali adaptatsiya bu ikki tomonlama harakatdir. Tashkilot o'qitish va integratsiya uchun sharoit yaratsa, xodim faollik, intizom va o'rganishga tayyorlik ko'rsatishi lozim. Shundagina har qanday jamoada sog'lom psixologik muhit va yuqori mehnat unumdorligi kafolatlanadi.

Murodbek AVAZOV



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Chegara qo'shinlarida

SADOQQAT VA MAHORAT bellashuvi

Yurt sarhadi – davlatning ramzi, nomusi va sha'ni. Mana shu muqaddas chiziqni ko'z qorachig'idek asrash, uning daxlsizligini ta'minlash har bir harbiy xizmatchidan yuksak mas'uliyat, sergaklik va matonat talab etadi. Bu sharaflı vazifani bajarishda Vatan posbonlari bilan qadamma-qadam, tun-u kun xizmat qilayotgan yana bir ajralmas kuchlar borki, ularning xizmatini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Ha, anglaganingizdek, gap sergak va sodiq xizmat itlari haqida ketmoqda.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari xizmat hayvonlarini tayyorlash markazida qo'mondonlik tizimida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Eng ilg'or iz-qidiruv xizmat iti" musobaqasining bu yilgi mavsumi ham o'zgacha shiddat va yuqori kayfiyatda tashkil etildi.

Final bosqichida ishtirokchilar bu shunchaki bellashuv emas, balki inson matonati va hayvon instinktining uyg'unligi namoyish etilgan haqiqiy mahorat maktabi ekanini amalda ko'rsatishdi.

Yakuniy bahslar dasturiga kiritilgan uch bosqichli shartlar harbiy xizmatchilar va ularning

itlari o'zlarining ishonchli himoyachi ekanini amalda isbotladi.

Musobaqaning eng murakkab, eng mas'uliyatli va badiiy jihatdan eng jozibali bo'lgan iz-qidiruv shartida ishtirokchilardan tabiatning inijliklari – shamol, chang va vaqt o'tishi bilan kuchsizlangan hidlar zanjiri ichidan



Ikkinchi o'ringa Qashqadaryo viloyatining qo'shni davlat bilan chegara hududlarida xizmat faoliyatini olib borayotgan va qurollangan shartli "chegara buzg'unchisi"ni qo'lga olish shartida "To'fon" laqabli xizmat iti bilan mahorat ko'rsatgan kinolog – III darajali serjant Jasurbek Dovurov haqli deb topildi.



Musobaqaning g'alaba shohsupasiga qadar bo'lgan yo'l uchta yirik va mashaqqatli bosqichdan iborat bo'ldi.

Birinchi bosqichda eng quyi tizimda, ya'ni bevosita davlat chegarasini qo'riqlayotgan chegara bo'linmalari miqyosida tashkil etildi. Unda kundalik xizmat jarayonida toblangan yuzlab kinologlar orasidan faqat eng mahoratli va o'z xizmat itining harakatlarini mukammal tushunadigan harbiy xizmatchilargina keyingi bosqich yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Ikkinchi bosqichda raqobat muhiti yanada keskinlashdi. Harbiy qismlar miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda mintaqalar bo'yicha eng kuchli deb topilgan mutaxassislar va ularning xizmat itlari o'zaro kuch sinashdi. Ushbu bosqichda kinologlarni xato qilishga haqqi yo'q edi. Chunki har bir soniya va har bir buyruq hakamlar tomonidan qat'iy nazorat ostida baholandi.

Nihoyat mashaqqatli dovonlardan o'tib, respublika miqyosidagi hal qiluvchi uchinchi bosqichga faqat 6 nafar eng ilg'or va saralangan kinolog xizmat itlari bilan yetib keldi.

xizmat itlarini jismoniy hamda psixologik jihatdan maksimal darajada chidamliligini yana bir bor sinovdan o'tkazdi.

Birinchi umumiy mashqlar kursi shartida kinolog va xizmat iti o'rtasidagi psixologik aloqa sinovdan o'tkazildi. Unda turli shovqinlar, begona ovozlari va atrofdagi chalg'ituvchi omillarga qaramay, xizmat itlari o'z vazminligi va faqat egasiga bo'lgan mutlaq itoatini namoyish etib, yo'riqchi buyruqlarini tovush orqali hamda masofadan qo'l ishoralari bilan xatosiz bajardi.

Chegara xizmati doim kutilmagan to'siqlar va xavf-xatarlarga boy bo'lishi hisobga olinib, ikkinchi shartda xizmat itlarining baland devorlardan sakrab o'tishi, tor va xavfli yo'laklarda harakatlanishi, jismoniy kuch va jangovar shayligi ko'zdan kechirildi. Shartli ravishda hujum qilgan "qurolli jinoyatchi"ni zararsizlantirish va uni ushlab turish mashqlarida xizmat

faqat chegarani buzib o'tgan shaxsning izini topish talab etildi. Bunda kinologlar xizmat itlarining noyob hid bilish tuyg'ulari va instinktini ishga solib, yerdagi, daraxt shoxlaridagi va atrof-muhitdagi ko'zga ko'rinmas zarralarni ta'qib qilgan holda "shartli chegara buzg'unchisi"ning yo'nalishini aniqlab, qisqa fursatda topdi.

Bellashuvning yakuniy hisob-kitoblariga ko'ra, hozirda Farg'ona viloyatining qo'shni davlat bilan chegara hududlarida xizmat faoliyatini olib borayotgan va barcha bosqichlarda yuqori ball to'plab, o'zining professional mahorati bilan hakamlar hay'atini lol qoldirgan kinolog – III darajali serjant Rustambek Sobirov musobaqaning mutlaq g'olibi deb topildi. Uning "Rokki" laqabli xizmat iti bilan ko'rsatgan mukammal tandemi va yuksak natijasi haqqoniy ravishda olqishlarga sazovor bo'ldi.



Uchinchi o'ringa Surxondaryo viloyatini qo'shni davlat bilan chegara hududlarida xizmat faoliyatini olib borayotgan va murakkab sharoitlarda uzoq vaqt va masofada harakatlangan shartli "chegara buzg'unchisi"ni ta'qib qilish shartida "Konor" laqabli xizmat iti bilan faollik ko'rsatgan kinolog – kichik serjant Javohirbek Inomiddinov munosib deb topildi.

Musobaqaning tantanali yopilish marosimida g'olib va sovrindorlarga qimmatbaho esdalik sovg'alar, shuningdek "Ilg'or mutaxassis" ko'krak nishoni tantanali ravishda topshirildi.

– To'g'risini aytsam, qo'mondonlik bosqichida finalga yetib kelgan barcha kinologlar chinakam professionallar. Musobaqada raqobat juda shiddatli kechdi. Ayniqsa, uchinchi bosqichdagi iz-qidiruv mashqida havo harorati va chalkash izlar bizga qiyinchiliklar tug'dirdi. Biroq bunday vaziyatda eng muhimi – xizmat iti bilan bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilish. Tilsiz jonzot sizning ovozingiz ohangidan, hatto nigohingizdan qanday harakat qilish kerakligini uqib oladi. Men o'z hamrohimga to'liq ishonchimni oqladi. Ushbu musobaqa bizga nafaqat o'z mahoratimizni namoyish etish, balki real jangovar sharoitlarda duch kelinadigan to'siqlarni qanday yengib o'tishni yana bir bor amalda sinab ko'rish imkonini berdi, – deydi musobaqa g'olibi kinolog – III darajali serjant Rustambek Sobirov.

**Kapitan
Erkin YODGOROV**
DXX Chegara qo'shinlari



O'quv-uslubiy yig'in

BILIM VA KUCH SINOVDAN O'TDI

Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida joylashgan harbiy qismda Mudofaa vazirligining Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi tasarrufidagi qo'shima va harbiy qismlar kadrlar organlari harbiy xizmatchilari ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in bo'lib o'tdi.

Ikki kun davom etgan tadbirning asosiy maqsadi, kadrlar organlari harbiy xizmatchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, xizmat faoliyatida ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda jismoniy va ma'naviy tayyorgarlik darajasini oshirishdan iborat bo'ldi.



tayyorgarligi ham sinovdan o'tkazildi. Ishtirokchilar qisqa va uzoq masofalarga yugurish hamda turnikda tortilish bo'yicha belgilangan me'yorlarni bajardi. Sog'lom raqobat muhitini yanada mustahkamlash maqsadida futbol va boshqa jamoaviy sport musobaqalari ham tashkil etildi.



O'quv-uslubiy yig'inning birinchi kunida Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi ofitserlari, Olmaliq shahridagi "MISIS" universiteti professor-o'qituvchilari hamda qo'mondonlik boshqaruv apparati kadrlar bo'limi mutaxassislari tomonidan dolzarb mavzularda mashg'ulotlar olib borildi. Jarayonda kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv usullari, xizmat faoliyatida uchraydigan muammolarni bartaraf etish va ularning yechimlari yuzasidan tavsiyalar ham berildi.



Yig'inning ikkinchi kunida qo'mondonlik boshqaruv apparati hamda qo'shilmalar kadrlar bo'limi boshliqlariga qonunchilik va idoraviy me'yoriy hujjatlarga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlar, yangi qabul qilingan hujjatlar mazmun-mohiyati yetkazildi. Shuningdek, ishtirokchilarga amaliy faoliyatda uchraydigan masalalar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi.



Tadbir davomida o'zaro tajriba almashishga alohida e'tibor qaratildi. Ilg'or ish usullari muhokama qilinib, ularni keng joriy etish bo'yicha takliflar bildirildi. Bu jarayon ishtirokchilarning kasbiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qildi.

Yig'in doirasida harbiy xizmatchilarning jismoniy

Amaliy mashg'ulotlar harbiy qismning dala-o'quv maydonida bo'lib o'tdi. Bu yerda harbiy xizmatchilar yagona to'siqlar yo'lagidan o'tish, jamoa tarkibida harakatlanish hamda ruhiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarda faol ishtirok etdi. Murakkab sharoitlarda hamjihatlikda bajarilgan vazifalar harbiy birodarlik va o'zaro ishonchni yanada kuchaytirdi.



Yig'in doirasida harbiy xizmatchilarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish maqsadida ular poytaxtimizdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi. Harbiylar markazdagi noyob ekspozitsiyalar bilan yaqindan tanishish orqali xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi, yurtimizning islom tamadduniga

qo'shgan ulkan hissi haqida kengroq tasavvurga ega bo'ldi.

Kun yakunida qatnashchilarning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun harbiy qismning "Quvnoqlar va zukkolar" jamoasi tomonidan tayyorlangan konsert dasturi namoyish etildi. Bu esa yig'in ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Yig'in so'ngida o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklar muhokama etildi hamda istiqboldagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Tadbir davomida faol ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritgan bir guruh ofitser va serjantlar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shahnoza SULTONOVA,
TOQQQ matbuot xizmati
bosh mutaxassisi



Millat fidoyilari

QO'RQUVNING YURAGINI SUG'URIB OLGAN JANGCHI

Mudofaa vazirligi bosh serjanti serjant-mayor Alisher Mirzakarimov bilan Sariosiyo voqealari, jangovar matonat va inson irodasining chegaralari haqida suhbat.

Bundan yigirma olti yil muqaddam Surxondaryo tog' tizmalarida, musaffo osmon ostida mudhish bir jang boshlangan edi. O'shanda yurt tinchligini ko'z qorachig'idek asrash uchun ko'ksini qalqon qilgan yosh yigitlar ilk bor ajal bilan yuzma-yuz kelishdi.

Ushbu suhbat bugungi dorilamon va tinch kunlarimiz, biz intiqib kutadigan va eng ulug' qadriyatimiz bo'lgan Mustaqillik ayyomi aslida qanday og'ir sinovlar, necha-necha yosh yigitlarning shirin joni va jasoratlari evaziga qo'lga kiritilganini yodga solish uchun tashkil etildi. Bu suhbatda nomi tilga olingan qahramonlar unutilishi mumkin bo'lmagan millat fidoyilari, yurtning asl farzandlaridir. Ular jismonan oramizda yo'q bo'lsa-da, Vatan ozodligi va mustaqilligining tirik ustunlari sifatida qalblarimizda hamisha barhayot yashaydi. Bugungi osoyishta tonglar, tinch-totuv hayotimiz ular to'kkan qonning, ko'rsatgan beqiyos jasoratining mevasidir.

Suhbatdoshimiz ana shu ayovsiz janglarning bevosita ishtirokchisi, olovli nuqtalarda chiniqqan, quroldoshlari va shogirdlari orasida afsonaga aylanib, "qo'rquvning yuragini sug'urib olgan jangchi" nomi bilan tanilgan Mudofaa vazirligi bosh serjanti serjant-mayor Alisher MIRZAKARIMOV.

– Alisher, keling, vaqtni biroz ortga qaytarsak. Bu yil Mustaqillik ayyomining 35 yilligini keng nishonlaymiz, shu kunlarda o'sha mudhish Sariosiyo voqealarini, jang maydonida qahramonlarcha halok bo'lgan yigitlarni birzum xotirlasak. Bu oson kechmasligini bilaman. Chunki o'shanda juda yosh, hayotning go'zal lahzalaridan sarxush yigit edingiz va ilk bor o'limning sovuq nafasini his qilgansiz...

– Og'ir savol... Bu savolga javob berish yurakni qanchalik timashini tasavvur qilolmaysiz. O'sha mudhish kunlarga ham, mana, chorak asrdan oshib, 26 yil to'libdi. Ammo og'rig'i hali ham kechagidek yangi...

Biz safdoshlarimiz bilan bir tan-u bir jon edik. Ko'zimizga qarab, yurakdagi gapni uqardik. Tasavvur qiling: hozirgina siz bilan yelkama-yelka turib, kelajak orzularini gaplashib turgan eng yaqin sirdoshingiz, quroldoshingiz soniyalar ichida yoningizda yo'q bo'lib qolsa... U endi, bu dunyoda umuman yo'q! Buni tushuntirish, hazm qilish azob.

– Ayniqsa, 22 yoshli navqiron yigit uchun...

– Juda... Judayam og'ir dard bu.

– Sizlar Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi jangovar harakatlarda ilk bor haqiqiy, ayovsiz urush maydoniga tushdinglar. Ungacha bo'lgan amaliy mashg'ulotlarda bunday vaziyatlarga ruhan va jismonan tayyorgarlik ko'rilganmidi?

– Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida biz bu taktikalarni ko'p mashq qilganmiz. Masalan, dushman mutlaqo kutmagan, qopqonga tushadigan joyga pistirma qo'yish mashqlari... Afsuski, o'shanda biz to'qnash kelgan jangarilar ham bu taktikani juda yaxshi o'zlashtirgan ekan.

– Bu nimada namoyon bo'ldi?

– Ularning to'satdan hujum qilib, sarosimaga solishida. To'g'risini tan olish kerak, dastlabki kunlarda yo'qotishlar bo'ldi. Ammo ulardan tez orada to'g'ri xulosa chiqarib, keyingi xatolarning oldini oldik. Harbiy tilda "harbiy harakatlar teatri" degan tushuncha bor. Ular Afg'oniston va Chechenistondagi qonli urushlarda ishtirok etib, yovuzlik maktabini o'tagan, katta tajriba orttirgan jangarilar edi.

Bizda ham tog' sharoitida harakatlanish tajribasi bor edi. 1999-yilgi Angren voqealarida qatnashgandik. Ammo Sariosiyoda hududni mutlaqo bilmasdik. Bu esa bizga juda qimmatga tushdi. Dushman esa allaqachon bu tog'larning har bir toshi, har bir dara va soyini besh qo'lday o'rganib, qayerda yashirinishni ipidan ignasigacha rejalashtirib olgan ekan.

– Jangarilar haqidagi ilk sovuq xabar qachon keldi va Sariosiyoga qanday yo'l oldinglar?

– Bu 2000-yilning 31-iyul kuni edi. Biz tog' to'siqlaridan o'tish bo'yicha navbatdagi amaliy mashg'ulotni bajarayotgan edik. Besh qavatli binodan

ro'paradagi ulkan daraxtga arqon tortib, undan o'tishni mashq qilayotgandik. To'satdan buyruq keldi: "Bir soatlik jangovar shaylik!" Boshqa hech qanday izoh, ortiqcha gap yo'q. Ammo biz nimadir sodir bo'lganini va jiddiy sinov kutayotganini his qildik. Yugurib yo'lxalta va anjomlarimizni hozirladik. Tayyorgarligimiz bir soatga ham bormay, aeroportga yo'l oldik. Texnikalar bilan to'g'ridan to'g'ri samolyotga chiqib, ko'kka ko'tarildik.

– Qayerga borayotganingizni o'shanda ham bilmasmidingiz?

– Yo'q. Biz Surxondaryoga borib qo'ndik. Sariosiyo aeroportiga qadam qo'yganimizdagina vaziyat jiddiy va xavfli ekanini tushundik. Tunbo'yi mijja qoqmay, og'ir yuklarni, o'q-dorilarni tashib, tayyorgarlik ko'rdik.

– Sizning guruhingizga qanday vazifa yuklatildi?

– Biz Zevar qishlog'i va uning atrofidagi hududlarga borib tushishimiz lozim edi. To'palang daryosi havzasi bo'ylab Kishtut aholi punktigacha bo'lgan masofada qidiruv va tozalash ishlarini olib borish topshirildi. Guruhimizda 12 nafar yigit edik, bizga Ichki ishlar vazirligi harbiylaridan yana ikki kishini qo'shib berishdi.

Yo'lda ketyapmiz. Tomoqlar qurigan, suvimiz tugagan. Xaritaga qarab, yaqin atrofda buloq borligini bildik. Men buloq boshiga birinchi bo'lib yetib bordim. Bu avgustning uchinchi kuni edi. Qarasam, buloq bo'yida bitta qo'lqop yotibdi, ichi mo'ynali qishki qo'lqop. Yoz chillasida bu anjom qayerdan keldi? Ichimda: "Cho'ponniki bo'lsa kerak", deb o'yladim. Lekin atrofda na mol-qo'yning izi, na biror belgi bor edi.

Birozdan so'ng yerda "Adidas" krossovkasining izlariga ko'zim tushdi. Bu izlar taxminan to'rt kishiga tegishli edi. Komandirimiz Tohir aka Mamarahimov (hozir Mudofaa vazirligi ishlar boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi, polkovnik) izlarni sinchiklab kuzatib: "Alisher, bu izlar o'shalarniki... Hushyorlikni oshir!" dedi. Biz bu haqda zudlik bilan qo'mondonlikka ma'lum qildik. Tog' sharoitida topilgan bunday ashyolar muhim ahamiyatga ega.

Jangarilar oziq-ovqat va kerakli anjomlarni oldindan mana shu hududlarga yashirib chiqishgan ekan. Ular o'zlari bilan hech qachon ortiqcha yuk ko'tarishmasdi. Faqat qurol va zarur miqdordagi o'q-dori, tamom.





Ular shunday qulay balandliklarni egallashgandiki, maqsadlari faqat bizni kuzatish va to'qnashuvga kirishmay urushish bo'lgan. Vertolyot bizni shimoli-g'arb tomonga eltib tashladi. Bevosita jang boshlanishidan avval harbiy aviatsiyamiz dushman pozitsiyalariga zarba berdi. Ammo dushman kaftdek ko'rinib turadigan baland qoyalar va toshlar ortiga yashiringan edi. Tog'li hududda kim tepada bo'lsa, ustunlik o'shanda. Tepaga qarab chiqayotib, ham oyoq ostiga qarash, ham dushmanni kuzatish imkonsiz edi. Ular toshlar ortidan to'satdan chiqib, o'q uzishar va yana g'oyib bo'lishardi.

Shu payt Qahramon aka Madolimov bir o'zi, oldinda yarador bo'lib yotgan Ulug'bek Barnoyev tomon yugurib, pastga tushib bordi. U yaradorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatayotganda, dushman yana panadan chiqib o'q uzdi va Qahramon akani ham yaraladi.

– **Bu ilk to'qnashuv paytidami?**

– Ha. Ilk to'qnashuvda, dastlab Ulug'bek bilan Ma'ruf Rajabov yaralanishdi. Ularga yordamga shoshilgan Qahramon aka ham o'q yedi. Sadinov Sayyor aka ham ko'krigidan jarohat oldi. Lekin u ko'ksini qo'li bilan to'sib, o'zini panaga olishga erishdi. Birozdan so'ng vertolyot kelib, yaradorlarni evakuatsiya qila boshladi.

Hududni tozalash vaqtida guruh komandiri Mahmud Jalilov va uning qo'l ostidagi mutaxassis Ilyos ham og'ir yaralandi. Mahmud akaning o'zi o'lim bilan kurashayotgan bo'lishiga qaramay, tibbiy yordam ko'rsatayotganlarga baqirdi: “Menga tegmanglar, birinchi navbatda, Ilyosga yordam beringlar!” Qarang, qanday mardlik...

– **O'zi ham o'ta og'ir ahvolda bo'la turib-a?**

– Ha, u haqiqiy komandir sifatida o'z hayotini emas, askarining hayotini o'yladi.

– **Mana haqiqiy komandirlik mas'uliyati va jasorati!**

– Afsuski, tezkor tibbiy yordam ko'rsatilishiga qaramay, Mahmud aka vafot etdi, u shahid bo'ldi... Ilyosning hayoti esa saqlab qolindi. To'g'ri, shifokorlar uning oyog'ini asrab qololmadilar, ammo u bugun oramizda yashayotgan tirik qahramonlarimizdan biridir.

Biznikilar yaqinlashib kelgach, jangarilar qochishga majbur bo'lishdi. Ular qalin changalzor va quyuq o'rmon ichiga kirib ketishdi. Biz ularni ta'qib qilib, ortidan tushdik. Jangarilar tarqalib ketdi. Guruhimiz yigitlaridan Elomon Otajonov, Yunus Oxunov va Doniyor Tojiboyev dushmanni ikki nafar a'zosini quvib, pastga – tor va xavfli dara ichiga tushib borishdi. Elomon eng oldinda edi. To'satdan, xuddi yerdan chiqqandek, uning ro'parasida dushman paydo bo'ladi.

– **Nahotki, u daraxt panasidan chiqqan bo'lsa?**

– Ha, to'satdan archa ostidan chiqib, Elomonni otgan. O'q uning shunday hayotiy nuqtasiga tekkandiki, oyoq-qo'llari mutlaqo ishlamay, falaj bo'lib qolgandi. U faqat birgina qo'lining bosh barmog'i bilan bazo'r ratsiya tugmasini bosishga kuch topa olgan, xolos.

Elomon: “Dushman ro'paramda, chap tomondagi katta tosh orqasida turibdi”, deb xabar berdi. Biz esa ratsiya orqali: “Elomon, o'zingni panaroqqa ol, biz yetib kelyapmiz!” deb baqirardik. Biz uch tomondan harakatlanayotgan bo'lsak-da, tik qoya va to'siqlar tufayli, to'g'ridan o'tishning iloji yo'q edi. Orqaga qaytib, balandlikni aylanib o'tishimizga to'g'ri keldi. Bu esa uch soat qimmatli vaqtimizni oldi.

Biz yo'lda borayotib, ratsiyadagi suhbatni eshitib turdik. Elomon yaralangach, unga yordam berish uchun Yunus va Doniyor borishadi. Ammo tosh ortida pisib yotgan jangari avval Doniyorni, keyin esa Yunusni otadi...

– **Aynan qutqarishga borgan soniyalarida-ya?**

– Ha. Olim aka, ishonasizmi, masofa shunchalik yaqin va tor ediki, qochishga yoki panaga o'tishga joy yo'q edi. Bu tor yolg'izoyoq yo'l, daraning eng quyuq, changalzor qismi edi.

Davronbek Ismoilov degan ukamiz ularning tepa tarafidagi balandlikda edi, lekin quyuq daraxtlar tufayli pastda nima bo'layotganini ko'ra olmasdi. Yigitlar bir-birlarini himoya qilib, xavf nuqtasiga yaqinlashishadi. Shu payt Elomonni yaralagan o'sha qotil panadan chiqib, to'g'ri uning oldiga yurib kela boshlaydi.

Elomon ratsiyada: “Men uni ko'rdim, u men tomon kelyapti”, deb shivirlaydi. Biz esa: “Elomon, ozgina bo'lsa ham surilishga harakat qil, orqadan bolalar boryapti, yetdik!” deymiz.

U bo'lsa umidsiz, ammo mardonavor ovoz bilan: “Yo'q... yo'q, oyoq-qo'lim umuman ishlamayapti. Faqat shu ratsiya tugmasini bosib turibman, xolos... Ana keldi, tepamda turibdi”, dedi. Agar imkoni bo'lganda, qo'lidagi avtomati bilan uni otib tashlardi. Ammo u chorasiz edi...

Uning komandiri Abduvali Hamroyev ratsiyada: “Elomon, shoshilma, biz keldik!” deb baqirardi. Elomon esa sovuqqonlik bilan: “Bilaman... Siz baribir menga yordam berishga ulgurmaysiz. Ulgurmaymiz...” dedi-da, oxirgi vasiyatini aytdi: “Sizdan bitta iltimosim bor... Ota-onamga yordam bering, ularni yolg'iz qo'ymang!..”

Ko'ryapsizmi, o'limning sovuq ko'ziga qarab turib ham, mushtipar ota-onasini o'ylayapti. Komandir unga taskin berishga urindi: “Elomon, unday dema, hammasi yaxshi bo'ladi!”

So'ng o'q ovozi eshitildi... Va jimlik...

Ko'p o'tmay, bizning guruh yetib bordi va qochishga uringan o'sha ikki jangarini qurshab olib, otishmada yo'q qildi.

Ammo kun botib borar, shahid bo'lgan va yaralangan yigitlarni zudlik bilan olib ketish kerak edi. Vertolyot chaqirdik. Mana shu yerda uchuvchilarimizning haqiqiy jasorati namoyon bo'ldi. Hudud shu qadar tik va noqulay ediki, u yerga qo'nishning mutlaqo iloji yo'q edi.

Uchuvchi vertolyotning orqa chap shassisini katta tosh ustiga arang tirab, muvozanatni saqlab turdi. Doniyor juda bahaybat, gavdali yigit edi. Ularning jasadini tik qoya bo'ylab qadamma-qadam, qarichma-qarich yuqoriga ko'tarib chiqdik va vertolyotga joyladik. Ko'kka ko'tarilgan vertolyot ortidan qarab qoldik... O'sha kuni biz tog' bag'rida qoldik.

– **Keyinchalik ham shunday to'qnashuvlarda qatnashdingizmi?**

– Albatta. Jangarilarni tog' ichkarisiga ta'qib qilib kirdik. Ular kichik guruhlarga bo'linib, qochishga urina boshlashdi. Shundan so'ng hududni qidirish va tozalash ishlari boshlandi. Har kuni tong sahar soat 4:30 yoki 5:00 da harakatni boshlardik. Bir hudud tozalangach, u yerga dushman qayta qaytmasligi uchun bitta guruh qoldirilardi. Keyin biz pistirma taktikasiga o'tdik.

Bizning katta guruhimiz namoyishkorona yo'lga chiqadi. Yo'l-yo'lakay dushmanga sezdirmasdan, askarlar bitta-bittadan yashirinib, qolib ketaveradi. Dushman esa barcha harbiylar o'tib ketdi, deb o'ylab, o'z inidan chiqadi va tuzoqqa tushadi. Bu taktika juda qo'l keldi. Komandirlarimizning zukkoligi va tezkor qarorlari samara berdi.

Avgustning 7 va 10-kunlari yana ikki marta shunday to'qnashuvga duch keldik. Kundan kunga yigitlarda jangovar mahorat ortib borardi. Bir safar pozitsiyada yotganimizda otishma boshlandi. Dushman toshlar orasidan qisqa o'q uzib, yana g'oyib bo'lardi. O'shanda yonimdagi sherigim bilan aloqani yo'qotmaslik, uxlab qolmaslik uchun oddiy ipdan foydalangandik.

– **Ip orqali shartli belgi...**

– Ha. Oramiz taxminan 50 metr edi. Agar ipni ikki marta tortsak “Yaxshimisan?”, bir marta tortsak “Yaxshiman”, uch marta tortsak “Hammasi tinchmi?” degan ma'noni bildirardi.

O'sha tun tog'da shunday sovuq bo'ldiki, ta'riflashga til ojiz. Harakat qilsangiz, sovuq bilinmaydi. Ammo tosh ustida qimirlamay yotganingizda... Quyosh esa chiqay demaydi. Bu hayotimdagi eng og'ir, eng dahshatli sovuq kecha edi. O'sha izg'irin haligacha suyaklarimni zirqiratadi.

– **Suhbat davomida quroldosh do'stlaringizni qayta-qayta tilga oldingiz. Sariosiyo siz uchun eng qadrli insonlaringizni yo'qotgan maskan bo'lib qolibdi-da...**

– Borimni yo'qotganman u yerda, Olim aka...

Agar hozir ham “O'sha yigitlar uchun, Vatan uchun yana jangga kirasanmi?” deyishsa, bir soniya ham o'ylamay, hoziroq yo'lga chiqaman.

– **Uyingizda o'sha kunlardan esdalik bo'lib qolgan biror buyum bormi?**

– Bor. O'sha jangda kiygan harbiy bushlatim haligacha turibdi. Men uchun u bebaho esdalik. Yana bitta kamarim bor – eskirganidan xuddi qog'ozdek yirtilib ketadi, lekin uni ko'z qorachig'imdek asrayman.

– **Bugun sizdan ta'lim olayotgan yosh serjantlar, shogirdlaringiz ko'p. Ular ham bugungi tinchlikning qadrini siz kabi teran anglab, zimmalaridagi mas'uliyatni yurakdan his qilishyaptimi?**

– Albatta. Bunday fidoyi shogirdlarim ko'p, ular bilan faxrlanaman. Ilgari qishlog'imizda harbiylar kam bo'lardi. Mabodo maktabimizga chiroyli harbiy liboslarda kirib kelishsa, hayajondan yuragim portlab ketay derdi. Mana shu havas meni harbiy qildi.

– **Demak, harbiylar maktablarga ko'proq borishi, yoshlar qalbida Vatan himoyachisi bo'lishdek muqaddas tuyg'uni uyg'otishi lozim. Alisher, siz ko'pchilik orzu qiladigan baxtga muyassar bo'lgansiz, Prezidentimiz, Oliy Bosh Qo'mondonimiz bilan shaxsan uchrashib, suhbatlashgansiz. O'sha daqiqalarda nimani his qildingiz?**

– Bu har bir harbiyning oliy orzusi. Oliy Bosh Qo'mondonimiz: “Biz sizlarga ishonamiz. Mana shu ishonchni amalda isbotlashingiz kerak”, dedi. Bu so'zlar menga ulkan kuch va mas'uliyat baxsh etdi.

– **Bugun mana shu yuksak mas'uliyatni qanday oqlayapsiz?**

– Bunga o'zim baho bersam, to'g'ri bo'lmas. Ishimga qo'shinlarda xizmat qilayotgan serjantlar tarkibi baho bergani ma'qul.

– **Biz sizni armiyamizda o'ta qat'iyatli, metin irodali bosh serjant sifatida bilamiz. Xo'sh, bosh serjant uyga kelib, harbiy libosini yechganda kimga aylanadi?**

– Hayotimning har bir sinovida yelkama-yelka turib kelayotgan rafiqam bilan juda baxtliman. Baxtli otaman. Ammo to'g'risini aytsam... Harbiy libosimni yechganda ham men harbiy bo'lib qolaveraman. Chunki bizning qalbimiz harbiy tamom.

– **Bu so'zlaringiz zahirida butun bir hayot falsafasi, Vatanga bo'lgan cheksiz sadoqat mujassam, Alisher. Ha, qalbi harbiy bo'lgan, tomirida yurt ishq jo'sh urgan siz kabi insonlar bor ekan, Vatan hamisha ozod, xalqimizning ertangi kunga bo'lgan ishonchi mustahkamdir. Siz bilan suhbatlashib, bugungi osoyishta kunlarimizning har bir soniyasi qanchalik qadrli ekanini yana bir bor yurakdan his qildim.**

Sariosiyo tog'larida halok bo'lgan quroldosh do'stlaringizning pok nomlari barhayot va ularning jasorati mustaqillik solnomasiga oltin harflar bilan muhrlangan.

Mazmunli va tarixiy suhbat uchun katta rahmat!

– Salomat bo'ling! Yurtimiz tinchligi yo'lida xizmat qilishdan charchamaylik.

Olimjon O'SAROV suhbatlashdi.

Muloqot



GENERAL ASKARLAR BILAN *nega uchrashdi...*

Harbiy jamoada ishonch, ochiqlik va samimiy muloqot muhitini qaror toptirish bugungi islohotlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki askar qalbiga yo'l topmasdan turib, ular o'rtasida yuksak jangovar ruh va sadoqatni ta'minlab bo'lmaydi. Shu ma'noda har bir harbiy xizmatchining fikri, tashabbusi va muammosiga e'tibor qaratish, ularni eshitish va qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sharqiy harbiy okrugning Farg'ona va Andijon garnizonlaridagi harbiy qismlarda general va askarlar uchrashuvi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir harbiy xizmatchilar bilan ochiq va samimiy muloqot o'rnatish, ularning muammolari va takliflarini tinglashga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Uchrashuvda mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i, Farg'ona va Andijon harbiy prokuraturasi mas'ullari hamda muddatli harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. Ochiq muloqot tarzida tashkil etilgan tadbirda mamlakatimizda Qurolli Kuchlarni zamon talablari asosida rivojlantirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish, xizmat va yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, ijtimoiy

himoyani kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Bugun Qurolli Kuchlar tizimida nafaqat jangovar tayyorgarlikni takomillashtirish, balki harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlashga qaratilgan tizimli ishlar o'z samarasini bermoqda. Bu esa yoshlarning Vatanga sadoqat ruhida kamol topishi va kelgusida yetuk mutaxassis bo'lib voyaga yetishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

Muloqot davomida muddatli harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan

imkoniyatlar, ayniqsa oliy ta'lim muassasalariga kirishda berilayotgan imtiyozlar, davlat tomonidan taqdim etilayotgan qo'shimcha kafolatlar va rag'batlantirish mexanizmlari yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi. Qayd etilganidek, mazkur imkoniyatlar yoshlarning xizmatga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, ularning kelajak rejalarini aniq belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadbirda muddatli harbiy xizmatchilar ham xizmatni tashkil etish, ta'lim olish, kasb-hunar egallash, kelgusidagi faoliyati hamda ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarni erkin bildirib, taklif va mulohazalarini o'rta tashladi.

Bildirilgan har bir murojaat e'tibor bilan tinglanib, mutasaddi rahbarlar tomonidan amaldagi qonunchilik va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda aniq va asosli javoblar berildi. Ayrim masalalar yuzasidan tegishli mas'ullarga topshiriqlar berilib, ularning ijrosi nazoratga olindi.

Shubhasiz, bunday ochiq muloqotlar harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni mustahkamlash, xizmatchilarni qiynayotgan masalalarni o'z vaqtida hal etish hamda ularning xizmatga bo'lgan ishonchi va mas'uliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug matbuot
xizmati bosh mutaxassisi

Imtiyoz va imkoniyat

Harbiy XIZMATDA YARATILGAN *kelajak*

Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tashabbusi bilan milliy armiyamizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida muddatli harbiy xizmatchilarning nafaqat xizmatni munosib o'tashi, balki ta'lim olishi va kelajak kasbini egallashi uchun ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ana shunday ezgu tashabbuslardan biri joriy yildan hayotga tatbiq etildi. Endi muddatli harbiy xizmatchilar xizmatni o'tash davrining o'zidayoq mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalariga qabul uchun o'tkaziladigan test sinovlarida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi. Bu esa harbiy xizmat va ta'limni o'zaro uyg'unlashtirish, yoshlarning bilim olishga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash hamda ularning kelajakdagi kasbiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ayni kunlarda mamlakatimiz bo'ylab 2026/2027-o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga qabul bo'yicha test sinovlari o'tkazilmoqda. Quvonarlisi, abituriyentlar safida muddatli harbiy xizmatchilar ham bor. Ular Vatan oldidagi muqaddas burchini ado etish bilan birga o'z bilim va salohiyatini sinovdan o'tkazib, kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun yana bir muhim qadam tashlamoqda.

Bu, shubhasiz mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan yuksak e'tibor va ishonchning amaliy ifodasidir. Davlatimiz tomonidan yaratilgan mazkur imkoniyatlar harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularning ta'lim olishdagi uzluksizligini ta'minlash va bilimli, vatanparvar kadrlar safini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, Namangan, Termiz va Nukus garnizonlarida xizmat qilayotgan muddatli harbiy xizmatchilarning test sinovlarida munosib ishtirok etishi uchun barcha tashkiliy va amaliy choralar ko'rildi. Askarlar belgilangan tartibda imtihon o'tkaziladigan hududlarga yetkazilib, xavfsizligi va o'z vaqtida test jarayonlarida qatnashishi ta'minlanmoqda.

Yaratilgan imkoniyatlarning yana bir muhim jihati shundaki, oliy ta'lim muassasasiga talabalikka tavsiya etilgan muddatli harbiy xizmatchilar harbiy xizmatni o'tash davrida birinchi o'quv choragini masofaviy ta'lim shaklida o'zlashtiradi. Vatan oldidagi sharaflari burchini muvaffaqiyatli ado etgach esa o'qishga qabul qilingan oliy ta'lim muassasasida ikkinchi o'quv choragidan boshlab kunduzgi ta'limni davom ettiradi.

Bu yangilik yoshlarning vaqtdan unumli foydalanishi, harbiy xizmatni ta'lim bilan uyg'unlashtirishi va kelajakka ishonch bilan qadam



tashlashi uchun yana bir muhim imkoniyatdir. Zero bilimli va vatanparvar yoshlar Yangi O'zbekistonning eng katta tayanchi va ertangi taraqqiyotining mustahkam kafolatidir.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"

Kechinma

Yaqinda Sharqiy harbiy okrug tarkibidagi harbiy qismlarda Ikkinchi jahon urushi qahramoni, Belarus o'rmonlarida dushmanga qaqshatqich zarbalar berib, "Kazbek" laqabi bilan nom qozongan afsonaviy o'zbek o'g'loni Mamadali Topivoldiyevning jasorati haqida hikoya qiluvchi "O'zbek arsloni" badiiy filmining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Mazkur tarixiy-badiiy asar, ayniqsa Vatan himoyasida turgan yosh askarlar qalbida o'chmas taassurot qoldirdi. Kino namoyishidan so'ng Vatan himoyachilari o'z ichki kechinmalarini insholar ko'rinishida oqqa ko'chirishdi. Quyida podpolkovnik Islomjon Umarov komandirlik qilayotgan harbiy qism askarlari tomonidan bitilgan samimiy dil izhorlarining ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz.



"O'ZBEK ARSLONI"

ASKARLAR NIGOHIDA

MAMADALI TOPIVOLDIYEV KIM?

Kino tugaganidan keyin o'zimga savol berdim. Xo'sh, bugungi askar uchun Ikkinchi jahon urushi qahramoni, afsonaviy partizan Mamadali Topivoldiyev kim? Uning jasorati bizga, ijtimoiy tarmoqlar asrida yashayotgan yoshlarga nima bera oladi? To'g'ri, biz yoshlar odatda, superqahramonlarni chet el kinolaridan qidirishga o'rganib qolganmiz. Lekin "O'zbek arsloni" filmi menga asl qahramon kimligini ko'rsatdi. Belorussiyaning sovuq o'rmonlarida, dushman ichida yolg'iz qolib ham ruhan sinmagan, fashistlarning yuragiga g'ulg'ula solgan o'zbek yigiti Mamadali – mana bizning haqiqiy superqahramonimiz!

Men undan metin irodali bo'lishni va har qanday sharoitda ham taslim bo'lmaslikni o'rgandim. Uning jasorati menga shuni anglatdiki, qo'lingdagi qurol emas, qalbingdagi imon va mardlik seni yengilmas qiladi. Mamadali Topivoldiyev Vatanni sevishni so'zda emas, amalda ko'rsatdi. Undan olgan eng katta sabog'im yurtni himoya qilish bu yigit kishi uchun or-nomus ishidir.

Ba'zan yoshlar orasida "Men oddiy bir odam bo'lsam, nimani o'zgartira olardim?" degan fikr uchrab turadi. Lekin farg'onalik Mamadali Topivoldiyev bu fikrni chil-chil sindiradi. Filmni ko'rar ekanman, dushman eshelonlarini portlatgan, yuzlab odamlarni o'limdan qutqargan va bir o'zi katta bir qo'shinga qarshi tura olgan bu inson biz askarlarga murojaat qilayotgandek bo'ldi: "Sen oddiy odam emassan, sening tomiringda sharaflı ajdodlar qoni oqmoqda!"

Xulosa o'rniida aytishim mumkinki, "O'zbek arsloni" harbiy libosimga, qo'limdagi qurolimga va eng muhimi, o'z yurtimga butunlay boshqacha ko'z bilan qarashni o'rgatdi. Men Mamadali Topivoldiyevdan Vatanga sadoqatni va o'zbek yigitining or-nomusi qanday bo'lishini o'rgandim.

Muddatli harbiy xizmatchi
Asadbek RAMETOV

FILMDAN KEYINGI O'YLARIM

– Harbiy xizmatchilar odatda, o'zaro suhbatlarda his-tuyg'ularini ko'p ham ochiq aytavermaydi. Chunki armiya yigit kishini jiddiy, bosiq-vazmin, biroz sovuqqon etib tarbiyalaydi. Lekin "O'zbek arsloni" filmi taqdimotidan keyin biroz hayajonga berildim.

Mamadali dushman qurshovida, mutlaq yolg'iz qolganda ham qo'rquvini irodasiga bo'ysundira oldi. Undan mana shu ruhiy kuchni o'rgandim. Endi men ham jismoniy mashqlarda yoki tungi navbatchilikda charchaganimda, uning sovuq o'rmonda kechgan lahzalarini ko'z oldimga keltiraman-da, o'zimni yig'ishtirib olaman. Filmda Mamadali Topivoldiyevning Belarus partizanlari bilan bir tan-u bir jon bo'lib ketgani, ularning bir-biriga yordami juda ta'sirli chiqqan. Urush maydonida millat, til yoki din ajratilmas ekan, u yerda faqat bitta haqiqat bor, yoningdagi sheriging sening suyanching, sening qalqoning.

Biz O'zbekistonning turli viloyatlaridan kelgan yigitlar bilan birgamiz. Kimdir Xorazmdan, kimdir Andijondan, kimdir Surxondaryodan. "O'zbek arsloni"ni ko'rgach, yonimdagi safdoshlarimga boshqacha qaray boshladim. Angladimki, biz oddiy xizmatdoshlar emasmiz, biz bir mustahkam zanjirning halqalarimiz. Kinodagi ta'sirli lavhalar mana shu "yelkadoshlik tuyg'usi" do'stligimizni yanada qadrlı qildi.

Filmni ko'ra turib, bir narsani o'yladim: "Kazbek" dushman ortida, Belorussiyaning sovuq o'rmonlarida qahramonlik ko'rsatayotganida atigi yigirma yoshdan oshgan yigit bo'lgan. Xuddi mendek, xuddi hozir yonimda o'tirgan safdoshimdek oddiy yigit! U ham yashashni, uyga Farg'onaga, ota-onasi bag'riga qaytishni, sevishni, sevilishni istagan. Lekin u o'z orzularini emas, millionlab insonlarning erkinligini ustun qo'ydi. Uning boshqa millat vakillarini ham xuddi o'z qarindoshidek ko'rgani, unga bag'rini ochgani meni hayratda qoldirdi.

Men shuni angladimki, harbiy xizmatchi, eng avvalo, yuragidagi mehr-oqibati, rahm-shafqati va insoniyligi bilan qudratli ekan.

Muddatli harbiy xizmatchi
Ulug'bek MELIYEV

YURAGIMGA YAQIN JASORAT

– Harbiy libos kiygan odam harbiy xizmat yoki urush haqida kino ko'rganda, oddiy tomoshabindek qabul qilolmaydi. Biz filmdagi har bir jangovar sahnani, har bir harakatni tahlil qilib ko'ramiz: "Men uning o'rnida bo'lganimda, nima qilardim?" Biz uchun maxsus taqdimot o'tkazilib, katta ekranda Mamadali Topivoldiyev – afsonaviy Kazbekning taqdiri jonlanganda, uni har bir lavhasini katta hayajon bilan tomosha qildim.

Kinoda meni eng ko'p hayratga solgan voqealardan biri Kazbekning dushman ortida mardona harakat qilgani va eng og'ir, chorasiz vaziyatlardan ham aql bilan chiqib ketishi bo'ldi. Filmda o'zbek arslonining jasoratlari bilan birga odamgarchiligi yuragimga juda yaqin bo'ldi. Ayniqsa, Belarus qishloqlaridagi tinch aholiga ko'rsatgan mehri, ularni o'z yaqinlaridek himoya qilgani... Urushning qonli, shafqatsiz qonunlari ichida turib ham insoniylikni, mehr-oqibatni asrab qolish – mana haqiqiy jasorat!

Ekranda film ijodkorlarining nomlari paydo bo'larkan, men o'rnimdan boshqa odam bo'lib turdim. Mamadali Topivoldiyev menga harbiy libosning naqadar muqaddasligini va askarlik nomi qanchalik yuksak sharaf ekanini o'z hayoti bilan ko'rsatib berdi.

Ha, biz mardlarning avlodimiz va bu nomga hech qachon gard qo'ndirmaymiz!

Muddatli harbiy xizmatchi
Akobir JUMABOYEV

Kasbimdan faxrlanaman

Saf maydoni... Ko'zlarni qamashtirgudek vatanparvarlik nuri taralayotgan ushbu maskanda bugun o'zgacha bir shukuh, o'zgacha bir fayz bor. Egnidagi harbiy libosi o'ziga yarashgan kursantlar Vatan istiqboli sari qanot yozayotgan uchirma qaldirg'ochlar – yosh leytenantlar!

SHUKRONALIK ko'zyoshlari



To'rt yil oldin mana shu muqaddas zamin oldida ota-onasining duosini olib, Vatanga qasamyod qabul qilgan azamatlarga bugun havas va minnatdorlik ko'zi bilan boqayotgan nigohlarning cheki yo'q. Ota-onalarning qo'llari yana duoda, tillarida esa Yaratganga cheksiz shukrona: "Yelkangdagi yulduzing hamisha hayotingni, yo'llaringni yoritib tursin, bolam! Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!"

Xayolimdan "hayajonimni, ko'zimdagi sevinch yoshlarini birov sezib qolmadimikan", degan o'y o'tadi. Axir bugun mening to'ng'ich o'g'lim hayotimning mazmuni bo'lgan jigarbandim oliy harbiy ta'lim muassasasini tamomlayapti. Shu kunlarga yetkazganiga shukr! Kuni kecha o'g'lim tug'ildi deb suyungandim, tili chiqib, ilk bor "dada" deganida ko'nglim tog'dek

ko'tarilgandi. Men bilan "toy-toy" o'ynagan, birga dars qilib, ilk yutug'ini baham ko'rgan o'sha jajji bolakay bugun bo'yi bo'yimga baravar keladigan alpqomatli yigitga aylanibdi.

Ana, safda bizga qarab, mag'rur va baxtiyor kulib turibdi. Ayolim qalbidagi bu cheksiz faxr va shukronalik sezimlarini his qilgandek, sekin qo'limdan tutdi. Ko'zlarida sevinch yoshlari miltillarkan: "Dadasi, o'g'lingiz xuddi o'zingizga o'xshadi. "Ot izini toy bosar", deganlari shu bo'lsa kerak..." dedi shivirlab. Bu so'zlarni eshitib, qalbidan Yaratganga yana bir bor hamd-u sanolar otilib chiqdi.

NURLI ORZULARNING IJOBATI

O'g'lim bolaligidan katta bo'lsam, dadamdek harbiy bo'laman, derdi. Bolalikdagi sof orzular vaqt o'tib, qat'iy

maqsadga, maqsad esa tinimsiz mehnat va harakatga undadi. Uch yoshida jajji qalbidan chiqqan so'zi vaqt o'tib, amalga oshdi – u haqiqiy Vatan himoyachisi bo'ldi! Yo'llaring oydin bo'lsin, ota o'g'il! Sen bilan faxrlanaman, senga oq sut bergan onangga, sendek o'g'ilni voyaga yetkazgan taqdirimga ming bor shukr qilaman. Bu go'zal manzara meni salkam 30 yil avvalgi xotiralar, sog'inch va shukronalik og'ushiga uloqtiradi...

Saf maydonida otam uzundan uzoq duo qilganlari hamon qulog'im ostida: "Vatanga xizmat qilishdek eng sharaflil, eng muqaddas yo'lni tanlading, bolam. Bu yo'l umringni bezagi bo'lsin. Harbiy libosingga, ofitserlik nomingga aslo dog' tushirma. Ota-onangga xizmat qay darajada bo'lsa, Vatanga sadoqating ham xuddi shunday xizmatlaringda aks etsin", degandi. Yillar o'tdi. Yurtimning qay bir go'shasida xizmat vazifamni bajarmay, ota-onamning o'gitlari qulog'imda jaranglab, menga kuch va madad bo'lib turdi. Haligacha bu tilloga teng so'zlarga amal qilib kelaman. Bu hayot ummonida eng quyi pog'onadan yuqori pillapoyalargacha chiqishning o'ziga xos mashaqqatlarini his qildim, lekin hech qachon ortga chekinmadim.

Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Qashqadaryo, Buxoro – men bosgan, xizmat qilgan muqaddas manzillar... Maqsadim faqat tinchlikni asrash va yoshlar qalbini vatanparvarlik, ma'naviyat bilan boyitish edi. Eng katta baxtim va shukronam shundaki, bugun men tanigan va meni tanigan insonlar bilan bir-birimizdan minnatdormiz. Yurtimiz tinch, turmushimiz farovon, kelajagimiz esa nurafshon!

QUSH UYASIDA KO'RGANINI QILADI

Aslida vatanparvarlik hissi ham, kasbga bo'lgan muhabbat ham oila ostonasidan boshlanadi. Ota-bobolarimiz tarbiya borasida so'z ochganlarida: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz ta'kidlashmagan. Bolangiz uchun

ming sharoit yaratib bermang, eng zo'r maktabda o'qitmang, agar o'zingiz tarbiya, axloq, mehnat va el-yurtga sadoqat borasida ibrat bo'lmas ekansiz, ko'zlagan natijangizga erisholmaysiz. Men oilamizdagi mana shu sog'lom muhit uchun, fayz va baraka uchun hamisha shukrona aytaman. Har qanday holatda ham ota-onaning shaxsiy namunasi – tarbiyaning ilk poydevori.

Shukrlar bo'lsinki, uch o'g'lim ham Vatan ravnaqi yo'lida xizmatga otlangan bahodirlar bo'lib ulg'ayishmoqda. Katta o'g'lim o'qishni bitirdi-yu, janub sarhadlari tomon yo'l oldi. O'rtancham esa Moliyaviy boshqaruv va texnologiyalari universiteti talabasi. Bugun uch yoshli kenjatoyim Alixon ham akalarining izidan ketishga ahd qilgan. Bir kuni bog'chaga ketayotib, jiddiy qiyofada: "Dada, men ham xizmatga ketyapman. Menga askar kiyimini olib bering", dedi. Shu kundan beri u bog'chaga faqat harbiy libosda borib keladi. Jannatmakon yurtimizda tinchlik va harbiylik kasbi naqadar qadrlanishini mana shu kichiktoyimning nigohlarida ko'raman. Akasining bitiruv tantanasida jajji Alixonning harbiy akalari bilan bir safda shaxdam qadam tashlashini kuzatarkanman, qalbmni ulkan rizolik va sof shukronalik tuyg'ulari qamrab oldi. O'g'limning kelajagi mana shu saf maydonidan, ota va aka izidan borishdan boshlandi.

Harbiylik – shunchaki kasb emas, u Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat va qismat. Muqaddas zaminimizni ko'z qorachig'idek asrash ulug' sulolamizning sharaflil vazifasiga aylanganidan, qalbmida shukronalik hislari zamin qadar keng, osmon qadar yuksakdir!

**Podpolkovnik
Alisher AGZAMOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti Axborotlashtirish va
multimedia markazi boshlig'i**

Mulohaza

YOSHLARGA NASIHAT EMAS, NAMUNA KERAK

Prezidentimiz joriy yilning 30-iyun kuni yoshlarga murojaat qilib, bugungi va ertangi taraqqiyot uchun o'ta muhim haqiqatni yana bir bor ta'kidladi: "Bugungi kunning muvaffaqiyat formulasi, ertangi taraqqiyotning mustahkam zamini uchta eng muhim ustunga tayanadi. Bu – bilim, kasb va texnologiya!"

Darhaqiqat, bilim, kasb va texnologiya – mamlakat kelajagini belgilaydigan uch muhim ustun. Ammo bu ustunlarning mustahkam poydevori kitob mutolaasi, izlanish, tafakkur va ilmga hurmatdan boshlanadi. Kitob o'qimaydigan, mustaqil fikr yuritmaydigan, o'z ustida ishlamaydigan avloddan yuqori texnologiyalarni yaratadigan, zamon bilan bellasha oladigan mutaxassislar yetishib chiqishi qiyin.

Shu o'rinda jamiyat oldida juda jiddiy savol paydo bo'ladi: bugun qaysi rahbar yoshlarga qarata: "Kitob o'qishda mendan ibrat oling", deya oladi? Qaysi tashkilot rahbari o'zining kitobga munosabati, bilimga chanqoqligi, izlanishi va ma'naviy saviyasi bilan yoshlarga haqiqiy namuna bo'lmoqda? Qaysi rahbar jamoasida kitobxonlik muhitini yaratish, yoshlarning tafakkurini oshirish, ularni ilm-fan va texnologiyaga jalb etish uchun amaliy tashabbus ko'rsatmoqda?

Afsuski, ayrim rahbarlar yig'in va majlislarda Prezidentimiz belgilab bergan vazifalarni qo'llab-quvvatlashini, ularni so'zsiz amalga oshirishini ta'kidlaydi. Lekin baland minbarlarda aytilgan gaplar amalda ko'rinmasa, bunday va'dalarning qadri qolmaydi. Chunki yoshlar so'zga emas, amalga qaraydi. Ular rahbarning gapinigina emas, uning hayot tarzi, odati, kitobga munosabati, bilimga intilishi va shaxsiy namunasini kuzatadi.

Rahbar kitob o'qimasa, izlanmasa, yangi bilimlarni o'zlashtirmasa, yoshlardan bilimdon, tashabbuskor va texnologik fikrlaydigan avlod bo'lishni talab qilish qanchalik to'g'ri?

Bugun har bir muassasa va tashkilot rahbaridan ochiq so'rash kerak: yoshlar bilimdon bo'lishi uchun siz nima qilyapsiz? Jamoangizda kitobxonlik muhitini yaratish uchun qanday tashabbus ko'rsatdingiz? Xodimlaringiz, ayniqsa yoshlar kitob o'qishi, izlanishi va yangi texnologiyalarni o'rganishi uchun qanday sharoit yaratdingiz? Endi "bajaramiz", "amalga oshiramiz", "e'tibor qaratamiz" degan umumiy gaplar davri o'tdi. Prezident belgilab bergan vazifalarni qog'ozda emas, hayotda ro'yobga chiqarish vaqti keldi. Buning uchun har bir rahbar, avvalo, o'zidan boshlashi kerak: kitob o'qishi, bilim olishi, izlanishi va yoshlarga shaxsiy namuna bo'lishi shart.

Yurtimiz kelajagiga hech qachon befarq bo'lgan emasman. Shu bois har birimiz, ayniqsa rahbarlar, yoshlar oldidagi ma'naviy mas'uliyatni chuqur his qilishimiz lozim, deb o'ylayman.

Men yoshlarga kitob o'qish, bilimga intilish va mustaqil fikrlash borasida shaxsiy namuna bo'lishga harakat qilaman. Yoshligimdan bilimdon insonlarga havasim kelar edi. O'qishni o'rganganimdan beri turli mavzulardagi

adabiyotlarni mutolaa qilib kelaman. Chunki insonning dunyoqarashi kitob bilan kengayadi, tafakkuri esa izlanish bilan boyiydi.

O'n yildan ortiq mehnat qilib, "Erudit vaksinasi" nomli risolanini yaratdim. Unda yoshlarni kitobxonlikka, tafakkurga, bilimga va ma'naviy kamolotga chorlash g'oyasi mujassam. Ammo ming afsuski, bu kabi tashabbuslarning qadriga yetadigan, uning mazmuni va ahamiyatini angelaydigan amaldorlarni uchratish har doim ham oson bo'lmayapti. Xalqimizda "Zar qadrini zargar biladi", degan hikmatli so'z bor. Ilmning, kitobning, ma'rifatning qadrini ham uning mohiyatini anglagan inson biladi. Bugun bizga shunday "zargarlar" aqlni, bilimni va ilmni qadrlaydigan, kitobxonlikni qo'llab-quvvatlaydigan, yoshlarga nasihat bilan emas, amaliy namuna bilan ta'sir ko'rsatadigan rahbarlar kerak.

Chunki taraqqiyotni balandparvoz shiorlar emas, kitobxon, bilimli, kasb-hunarli, mustaqil fikrlaydigan va texnologiyani egallagan yoshlar yaratadi. Bunday yoshlar esa quruq nasihatdan ko'ra, ko'proq hayotiy namunaga muhtoj.

**Toirjon MAMATOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti Serjantlar tayyorlash
oliy maktabi katta o'qituvchisi**

Faxr



Askar oilasi HARBIY UNIVERSITETDA



O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan "Askar oilasi harbiy universitetda" tadbiri tashkil etildi.



Bugun Yangi O'zbekistonda milliy armiya nafaqat mamlakat xavfsizligining mustahkam qalqoni, balki vatanparvar, bilimli va zamonaviy kasb-hunarga ega yoshlarni tarbiyalaydigan hayot maktabiga aylanmoqda. Mustaqillik bayrami arafasida tashkil etilgan mazkur tadbir ham armiya va xalq o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash, farzandlar taqdiriga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

Tantanali ravishda kutib olingan mehmonlar dastlab faxriy qorovul saf

elementlari hamda qo'ljangi bo'yicha ko'rgazmali chiqishlarni tomosha qildi. Shundan so'ng ota-onalar universitetning mo'jazzgina tarixiy muzeyida bo'lib, Qurolli Kuchlarimiz taraqqiyoti, harbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ta'lim maskanining shonli tarixi bilan tanishdi. Keyin askarlar yashaydigan muhitni ko'zdan kechirishdi. Yotoqxona, oshxona, psixologik qo'llab-quvvatlash xonasi, zamonaviy o'quv sinflari va axborot-resurs markazida yaratilgan shart-sharoitlar mehmonlarda

katta qiziqish uyg'otdi. Ota-onalar farzandlari uchun yaratilgan qulay va zamonaviy muhitdan zavq oldi.

Tadbirning eng muhim jihatlaridan biri universitetda izchil amalga oshirilayotgan "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili bilan tanishuv bo'ldi. Bugun muddatli harbiy xizmatchilar harbiy bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda kelajakda mustaqil hayotga mustahkam qadam qo'yishlari uchun zarur bo'lgan kasblarni ham egallamoqda. Xususan, ular axborot texnologiyalari, kompyuter

grafikasi operatori, oshpazlik, buxgalteriya asoslari va sartaroshlik yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarida tahsil olmoqda. Bu tashabbus harbiy xizmatning mazmun-mohiyatini yanada boyitib, yoshlarning bandligi va kelajak hayoti uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Tadbir ishtirokchilari orasidagi ko'plab ota-onalar farzandlaridagi ijobiy o'zgarishlarni mamnuniyat bilan e'tirof etdi.

– Bu yerga kelgunga qadar farzandimning xizmat sharoitlarini faqat tasavvur qilardim. Bugun esa hammasini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Uning qanday muhitda yashashi, bilim olishi va kasb o'rganishi biz, ota-onalar uchun eng katta xotirjamlik ekan. Eng muhimi, farzandim harbiy xizmatni o'tabgina qolmay, kelajagi uchun mustahkam poydevor ham yaratayotganini ko'rib, qalbim faxrga to'ldi. Bunday e'tibor va g'amxo'rlik uchun davlatimiz rahbariga, Mudofaa vazirligi rahbariyatiga o'z minnatdorligimni bildiraman, – deydi Surxondaryo viloyati Angor tumanidan kelgan oddiy askar Doston To'rayevning onasi Tilla Bozorova.

Tadbirning badiiy qismi universitet madaniyat va ma'rifat markazida bo'lib o'tdi. "Farzandim bilan faxrlanaman" mavzusidagi davra suhbatida ota-onalarning fikr-mulohazalari tinglandi. Yakunda xizmatda namuna ko'rsatayotgan askarlarning ota-onalari tashakkurnomalar bilan taqdirlandi.

**Kichik serjant
Abdullajon UMARALIYEV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Axborotlashtirish va
multimedia
markazi texnik operatori**



Mustaqillik to'yi

VATAN RAVNAQI

yo'lidagi birlik va shijoat

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan Jizzax garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati kengashi hamkorligida "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida o'tkazilgan "Mustaqillik to'yi" festivali yuzlab yurtdoshlarimizni ezgu maqsad atrofida birlashtirgan ulkan ma'naviy-ma'rifiy tadbirga aylandi.

Festivalning ilk tadbiri sifatida tashkil etilgan "5 000 qadam" ommaviy yurish aksiyasi sog'lom turmush tarzi, jismoniy faollik va hamjihatlik g'oyalarini o'zida mujassam etdi. Yurishda harbiy xizmatchilar, yoshlar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniyalar hamda keng jamoatchilik vakillari faol ishtirok etdi. Bir maqsad yo'lida tashlangan minglab qadamlar inson salomatligi bilan bir qatorda jamiyat birdamligi va xalqning yuksak ma'naviy ruhini ham namoyon etdi. Zero bugungi kunda sog'lom avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jismonan baquvvat, ma'nan yetuk yoshlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ishonchli tayanchidir. Shu bois "5 000 qadam" aksiyasi ham Mustaqillik bayramining ajralmas qismi sifatida ishtirokchilarda sog'lom turmush tarziga intilish, Vatanga muhabbat va fuqarolik mas'uliyatini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Bayram tantanalari konsert dasturi bilan davom etdi. Ochiq maydonda yangragan kuy-qo'shiqlar, jonli ijrolar va milliy san'atimizning go'zal namunalarini barchaga bayramona kayfiyat ulashdi. San'atkorlarning

Vatan, tinchlik, muhabbat va sadoqatni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlari tomoshabinlar qalbida faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otdi.

Bayram tadbirlari doirasida "Ma'rifat karvoni" vatanparvarlik loyihasi ham yuksak saviyada tashkil etildi. Ushbu loyiha harbiy xizmatchilar qalbida Vatanga muhabbat, xalq oldidagi burchga sadoqat va ma'naviy barkamollik tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Tadbirida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan aktyor va xonandalar, taniqli yozuvchi hamda ijodkorlar ishtirok etib, o'zlarining hayotiy tajribasi, ijodi va samimiy muloqotlari orqali harbiy xizmatchilar qalbiga ezgulik, vatanparvarlik va fidoyilik g'oyalarini singdirdi. Ijodkorlarning chiqishlarida



xalqimizning boy ma'naviy merosi, ajdodlarimizning jasorati, bugungi tinch hayotimizning qadr-qimmatini hamda harbiy xizmatning sharafiga ta'sirchan fikrlar bildirildi.

Loyiha doirasida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar harbiy xizmatchilar uchun chinakam hayot maktabiga aylandi. Uchrashuvlarda ilm-fan, kitobxonlik, ma'naviyat, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik masalalari yuzasidan ochiq muloqotlar tashkil etildi.

Mustaqillik bayrami munosabati bilan tashkil etilgan ushbu tadbirlar yana bir haqiqatni tasdiqladi: Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng katta kuchi xalq va armiyaning hamjihatligi, yoshlarning bilim va salohiyati, ma'naviyatning yuksakligi hamda Vatanga cheksiz muhabbatidir.

Harbiy xizmatchilar bugun nafaqat qurol bilan yurt tinchligini himoya qilmoqda, balki o'zining yuksak ma'naviyati, intellektual salohiyati va vatanparvarlik fazilatlarini jamiyatimizga o'rnatib berib bormoqda.

Jizzaxda o'tkazilgan Mustaqillik tantanalari xalq va armiyaning mushtarak maqsad yo'lida birlashganini, ma'naviyat va ma'rifat taraqqiyotining eng muhim omili ekanini yana bir bor namoyon etdi.

"Eng yaxshi yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim ustunlaridan biri sifatida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Shu maqsadda Markaziy harbiy okrug qo'shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar o'rtasida "Eng yaxshi yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining okrug bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi.

Harbiy xizmat jismoniy chiniqish, qat'iyat va intizomni talab qilishi bilan birga, chuqur bilim, keng dunyoqarash hamda mustaqil fikrlashni ham taqozo etadi. Zero zamonaviy harbiy xizmatchi nafaqat qurolni mohirona boshqarishi, balki murakkab vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qila olishi, tarix, adabiyot va milliy qadriyatlarini chuqur anglashi zarur. Ana shunday fazilatlarni shakllantirishda kitobning o'rni beqiyos. Mutolaa inson tafakkurini boyitadi, nutq madaniyatini rivojlantiradi, tahliliy fikrlashni mustahkamlaydi va eng muhimi, qalbda Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat, insoniylik kabi yuksak fazilatlarni kamol toptiradi.



MA'NAVIYAT VA HARBIY xizmat uyg'unligi

Tanlovda harbiy qism va muassasalarda saralangan eng bilimdon kitobxonlar ishtirok etdi. Ular o'zbek va jahon adabiyotining sara namunalarini puxta o'zlashtirgani, badiiy asarlarni chuqur tahlil qilish, muallif g'oyasini anglash va mustaqil xulosa chiqarish borasidagi salohiyatini namoyon etdi.

Birinchi shart – "O'zbek adabiyoti bilimdoni". Unda ishtirokchilar Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, O'tkir Hoshimov,

Said Ahmad, Erkin Vohidov va boshqa zabardast adiblarning hayoti hamda ijodi yuzasidan savollarga javob berdi. Asarlar mazmuni, qahramonlar xarakteri, badiiy tasvir vositalari va asarlarda ilgari surilgan g'oyalar chuqur tahlil qilindi.

Ikkinchi shart – "Jahon adabiyoti bilimdoni". Ushbu bosqichda ishtirokchilar jahon mumtoz va zamonaviy adabiyotining mashhur namoyandalari ijodi bo'yicha bilimlarini sinovdan o'tkazdi.

Buyuk yozuvchi va shoirlarning insonparvarlik, tinchlik, ezgulik hamda adolat g'oyalari aks etgan asarlar yuzasidan erkin fikr yuritildi.

Uchinchi shart – "Badiiy asardan parcha" esa tanlovning eng qiziqarli bosqichlaridan biri bo'ldi. Ishtirokchilar tanlangan asarlardan parchalarni ifodali o'qish, ularning mazmun-mohiyatini sharhlash va qahramonlarning ichki kechinmalarini yoritishda o'z mahoratlarini namoyish etdi. Bu esa harbiy xizmatchilarning nafaqat bilimini, balki nutq madaniyati, sahna madaniyati va ijodiy tafakkurini ham ko'rsatishga xizmat qildi.

Tanlov davomida har bir ishtirokchi kitobga bo'lgan muhabbati, mutolaa sadoqati va bilimga chanqoqligi bilan ajralib turdi. Ularning javoblarida faqat yod olingan ma'lumotlar emas, balki asarlardan chiqarilgan hayotiy xulosalar, milliy qadriyatlarga hurmat va insoniy fazilatlar yaqqol namoyon bo'ldi.

Hakamlar hay'ati ishtirokchilarning bilim darajasi, fikr yuritish qobiliyati, nutq madaniyati hamda badiiy asarlarni tahlil qilish mahoratini har

tomonlama baholadi. Yakunda eng munosib deb topilgan ishtirokchilar tanlovning Mudofaa vazirligi bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Bu esa ular uchun nafaqat sharaf, balki yanada katta mas'uliyat hamdir.

G'olib va faol ishtirokchilar Markaziy harbiy okrug qo'shinlar qo'mondonligining diplomlari, statuetkalari, voucher hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.



"Zomin seminari"

Zomin... Bu nom tilga olinganda inson ko'z o'ngida nafaqat baland tog'lar, yam-yashil archazorlar, go'zal tabiat, balki ijod ahlining ma'naviy maskani, ilhom va tafakkur dargohi gavdalanadi. Ijodkor uchun ilhom ba'zan bitta so'z, bitta uchrashuv yoki bitta samimiy suhbatdan boshlanadi. Zominning so'lim bag'rida kechadigan ijodiy muloqotlar esa ko'plab yosh qalamkashlar uchun butun bir ijodiy maktab vazifasini o'taydi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan an'anaviy "Zomin seminari" bir necha o'n yillardan buyon iste'dodli yoshlarni kashf etish, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilib kelmoqda. Bu anjuman nafaqat yosh ijodkorlarni adabiyot va jurnalistika olamiga olib kiradi, balki so'z san'atining uzviy davomiyligini ta'minlaydigan muhim ma'naviy maydon sifatida ham qadrlanadi. Bir so'z bilan aytganda, Zomin ustoz va shogirdlarni bir maqsad atrofida birlashtirib, fikrlar charxlanadigan, qalam toblanadigan va yangi g'oyalar tug'iladigan haqiqiy ijod maktabidir.

Joriy yil ham Zomin tog'lari bag'ri yana ijod nafasiga to'ldi. Respublikamizning barcha hududlaridan saralab olingan 150 ga yaqin yosh qalamkash nazm, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, tarjima, adabiy tanqid va badiiy publitsistika kabi yettita yo'nalish bo'yicha ishtirok etdi.

An'anaviy "Zomin seminari" bu yil ham ezgu an'anaga muvofiq, poytaxtimizdagi "Adiblar xiyoboni"da buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yish marosimi bilan boshlandi. So'z mulking sultoniga ehtirom ramzi bo'lgan ushbu tadbirida yosh ijodkorlar Navoiy merosi oldida ta'zim qilib, o'z qalamiga yuksak mas'uliyat, millat va ma'naviyatga sadoqat tuyg'usini yana bir bor his etdi.

Shundan so'ng ishtirokchilar Zomin sari yo'l oldi. Yo'l davomida avtobuslarda turli hududlardan kelgan iste'dod egalari tanishdi, fikr almashdi, she'r va hikoyalar haqida suhbatlashdi. Bu yo'l, go'yo ularni oddiy safar emas, balki katta ijodiy maktab, yangi tajriba va unutilmas xotiralar sari boshlab borayotgandek edi.

Zomin zaminiga yetib kelgan ishtirokchilarni Jizzax viloyati hokimligi vakillari samimiy qarshi oldi. Mehmondo'stlik va yuksak ehtirom muhitida o'tgan kutib olish marosimi yosh ijodkorlarda iliq taassurot qoldirdi. Atrofni qurshab turgan so'lim tog'lar, musaffo havo va tabiatning betakror manzarasi seminar ishtirokchilarini ilk daqiqalardan oq ijod olamiga chorlab, ularga yangi ruh va ilhom bag'ishladi.

Shundan so'ng an'anaviy "Zomin seminari"ning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Uni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi



QALAM AHLINI BIRLASHTIRGAN IJODIY MAKTAB



raisi, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ochib berdi. U o'z so'zida "Zomin seminari" nafaqat yosh iste'dodlarni kashf etadigan, balki ularni katta adabiyot va jurnalistika yo'liga boshlaydigan nufuzli ijod maktabi ekanini ta'kidladi.

Seminarining ikkinchi kuni to'liq ijodiy muhitda davom etdi.

Ishtirokchilar shu'balarga bo'linib, mamlakatimiz adabiyotining taniqli namoyandalari ishtirokida o'tkazilgan mahorat darslarida qatnashdi. Har bir shu'bada ustoz adiblar yosh ijodkorlarning asarlarini atroflicha tahlil qilib, ularning yutuq va kamchiliklariga xolisona baho berdi. Asar ustida ishlash, obraz yaratish, badiiy til va uslubni



takomillashtirish, publitsistik fikrni ta'sirchan ifoda etish borasida qimmatli tavsiyalarini bildirdi.

Eng ahamiyatlisi, har bir yosh ijodkorga alohida e'tibor qaratilishi uchun ularga tajribali shoir va yozuvchilar birlashtirildi. Bu esa yosh qalamkashlar bilan individual tarzda ishlash, ularning ijodiy izlanishlarini chuqur tahlil qilish va iste'dodini yanada yuzaga chiqarish uchun keng imkoniyat yaratdi.

Anjuman doirasida tashkil etilgan adabiy-ma'rifiy uchrashuvlar esa ishtirokchilar uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Xususan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov bilan bo'lib o'tgan samimiy muloqot yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Adib o'zining ijod yo'li, adabiyotga kirib kelishi, asarlarining yaratilish tarixi hamda yosh qalamkashlarga zarur bo'lgan hayotiy va ijodiy maslahatlari bilan o'rtoqlashdi. Shuningdek, uning "Yaldo kechasi" kitobi taqdimoti ham anjumaning eng esda qolarli tadbirlaridan biri bo'ldi.

Taqdimot doirasida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining "So'z" loyihasi ijodkorlari tomonidan mazkur asar asosida sahnalashtirilgan she'riy spektakl namoyish etildi. Sahna asaridagi chuqur falsafiy mushohadalar, ta'sirchan badiiy chiqishlar va aktyorlarning mahorati ishtirokchilarni yanada ilhomlantirib yubordi.

Shunday qilib, uch kun davom etgan bilim, tajriba va ilhomga boy bo'lgan ijodiy muloqotlar o'z yakuniga yetdi. Marosimda seminar davomida faol ishtirok etgan yosh qalamkashlarning intilishi, ijodiy izlanishlari va salohiyati alohida e'tirof etildi. Ishtirokchilarga esdalik va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Tadbirdan so'ng yosh ijodkorlar Aydarko'l sari yo'l oldi. Tabiatning betakror mo'jizalaridan biri bo'lgan ushbu go'sha seminar ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi. Ko'l sohilidagi betakror manzara, quyosh botishi samimiy suhbatlar, ijodiy muloqotlar yoshlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirdi.

Shunday qilib, joriy yilgi an'anaviy "Zomin seminari" yana bir bor o'zining yuksak maqsad va vazifalarini amalda namoyon qildi. U yosh ijodkorlarga ustozlar sabog'idan bahramand bo'lish, o'z iqtidorini namoyon etish va ijodiy dunyoqarashini kengaytirish uchun beqiyos imkoniyat yaratdi. Eng muhimi, ushbu anjuman yurtimizning turli hududlaridan kelgan iste'dodli yoshlarni yagona maqsad – milliy adabiyot va jurnalistika taraqqiyoti yo'lida birlashtirdi.

Zomin bag'rida olingan saboqlar, orttirilgan tajriba va tug'ilgan yangi g'oyalar, shubhasiz, ertaga yurtimiz adabiyoti, jurnalistikasi va ma'naviy hayotida munosib o'rin egallaydigan asarlar, maqolalar va yangi ijodiy parvozlarga mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. Zomin esa har yilgidek iste'dodlarni chorlab, ularning qalbida ilhom chirog'ini yoquvchi muqaddas ijod maskani sifatida o'z nufuzini yanada mustahkamlab boraveradi.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, seminar davomida eng yaxshi deb topilgan asarlar "Birinchii kitobim" loyihasida chop etiladi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**

Xalq va armiya – bir tan-u bir jon



E'TIBOR VA G'AMXO'RLIK IFODASI

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yiligi arafasida Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida joylashgan chegaraoldi hududda aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turmush sharoitini o'rganish, ijtimoiy muammolariga amaliy yechim topish hamda aholi o'rtasida harbiy-vatanparvarlikni targ'ib etish maqsadida keng qamrovli tadbirlar tashkil etildi.

Tadbir doirasida Termiz harbiy gospitalining malakali shifokorlari tomonidan aholi uchun bepul chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar o'tkazildi. Fuqarolar terapevt, kardiolog, pediater hamda boshqa tor ixtisoslikdagi mutaxassislar qabullarida bo'lib, salomatlik holati atroficha tekshirildi. Zarur hollarda qo'shimcha tibbiy ko'riklar tashkil etildi, bemorlarga davolanish bo'yicha aniq tavsiyalar berildi. Bu olis hudud aholisi uchun muhim amaliy yordam bo'ldi.

Shuningdek, mutasaddi tashkilotlar va sektor rahbarlari ishtirokida sayyor qabullar o'tkazildi. Fuqarolarning murojaat va takliflari tinglanib, qator masalalar joyida hal etildi. Qo'shimcha o'rganish talab qiladigan masalalar nazoratga olinib, ular bo'yicha aniq

chora-tadbirlar belgilandi. Muhimi, bu kabi ochiq muloqot aholi va davlat idoralari o'rtasidagi ishonchni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Tadbirlar harbiy-vatanparvarlik ruhini keng targ'ib etgan festival bilan davom etdi. Harbiy orkestr va san'atkorlar ishtirokidagi konsert dasturlari, harbiy xizmatchilarning ko'rgazmali chiqishlari yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu festival Vatanga muhabbat, milliy g'urur va harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini kuchaytirgan muhim ma'naviy maktab bo'ldi.

Chegaraoldi hududda o'tkazilgan bu kabi tadbirlar aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning dardini eshitish va amaliy yordam ko'rsatish borasidagi ishlar izchil davom etayotganini ko'rsatadi.



Ogohlik

KIBERXAVFSIZLIK – zamon talabi

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz garnizonida joylashgan harbiy qismda kiberxavfsizlikka bag'ishlangan o'quv mashg'uloti tashkil etildi.



Unda Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi kiberxavfsizlik bo'limi mutaxassislari, Janubiy operativ qo'mondonlik Kiberxavfsizlik markazi mas'ullari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad harbiy xizmatchilarning kiberxavfsizlikni oshirish, raqamli makonda xavfsiz harakatlanish qoidalarini tushuntirish, internet tarmog'ida uchraydigan kibertahdidlardan himoyalash hamda shaxsiy ma'lumotlarni ishonchli saqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Mashg'ulot davomida sohada tajribaga ega mutaxassislar tomonidan ma'ruzalar taqdim etildi. Ularda zamonaviy kibertahdidlar, internet firibgarligi usullari, axborot xavfsizligi talablari hamda kibermakonda shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari atroficha yoritib berildi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar uchun muhim bo'lgan ehtiyotkorlik choralari va amaliy tavsiyalarga alohida e'tibor qaratildi.

Yakunda ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollar yuzasidan mutaxassislardan batafsil javoblar oldi. Bu esa tadbirning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi.

Ta'kidlash joziki, bunday o'quv mashg'ulotlari harbiy xizmatchilarning kiberxavfsizlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab, ularni raqamli tahdidlarga nisbatan yanada hushyor va tayyor bo'lishga xizmat qilmoqda.

III darajali serjant Akbar AHMEDOV (Termiz garnizoni)

Fikr

HAMMASIGA INTERNET AYBDOR(MI?)

Telegramda blog yuritaman. Kanalim obunachilari asosan yoshlar. Yaqinda ijtimoiy so'rovnoma o'tkazdim. 85 kishi ishtirok etdi. O'rtaga savol tashladim: "Bosma nashrlarni o'qib borasizmi?" 77 kishi "yo'q" deya javob beribdi.

2016-yil, may. Gazeta va jumallari arxivini yaratish maqsadida maktabimiz kutubxonasida "Matbuot" burchagi tashkil etilgandi. Qator bo'lib turgan ro'znomalarni ko'rib, ko'zimiz quvnardi.

"Dono Word", "Bilimdon", "G'uncha" jumallari, "The Globus", "Sog'lom avlod", "Bulbulcha" gazetalarini zavq-shavqla o'qirdik. Navbatdagi soni qachon keltirilishini kutubxona mudirasidan so'radik. Odatdagidek, "Keyingi hafta", degan javobni olardik. Umuman, maktab o'quvchilari gazeta va jumallarga befarq emasdi. Ayniqsa, "Gulxan"ning bozori chaqqon. Ikki kun avval pochta yon Sharif amakining bir quchoq bolalar nashrlarini ko'tarib kelganini ko'rgandim. Bugun esa jumallardan asar ham yo'q...

2026-yil, may. Oradan o'n yil o'tdi. Maktabdaman. Muhit ham, manzara

ham o'sha-o'sha. Qadrdon maskanim – kutubxona tomon yo'l olaman. Xayriyat, "Matbuot" burchagi saqlanib qolgan ekan. Ammo... ikki-uch dona gazeta turibdi xolos. "Xalq so'zi"ning yanvar oyida chop etilgan sonlari taxlangan.

Ehtimol, o'quvchilar qo'lidadir qolganlari, deya o'zimni ovutaman. Yaxshi gumonda bo'lishga harakat qilaman. Ma'lum bo'lishicha, kutubxonaga endilikda faqat bir nomdagi nashr yetkazib berilayotgan ekan. Esiz...

Ochig'i, tengdoshlarimiz nega "yo'q" deya javob berganining boisini surishtirib o'tirmadim. Ayonki, "Internet bor-ku", degan javobga ro'baro' bo'laman. Bir xil, "qolip" fikrlarni bildirishadi.

Ha, baxtimizga yaxshiyamki "internet bor". Bahonamiz tayyor!



O'ylab ko'ring-a, ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning bir bo'lagiga aylanmaganida qay yo'sinda yo'riq tutardik?!

Hayratdaman. Axir har bir ommaviy axborot vositasining jamiyatda o'z o'rnini bor-ku! "O'rgimchak to'ri"ning ommalashib ketganini matbuotdan uzoqlashishimizga sabab sifatida ko'rsatish qanchalik to'g'ri?

Internet – tezkor axborot manbai. Inkor qilmoqdan yiroqmiz. Ammo

jarida va majallalar insonni fikr yuritishga, mushohada qilishga undaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda-chi? Darhaqiqat, aksar insonlar sarlavhani o'qish bilan kifoyalanmoqda.

Shunday ekan, kalavanning uchi internetning keng quloch yozganiga emas, balki mutolaa madaniyatining susayib ketganiga borib taqalar. Nima dedingiz?

Ulug'bek SHAROBIDDINOV,
O'zJOKU talabasi

Ibrat maktabi

Uch avlod UCHRASHUVI

Farg'ona garnizonida joylashgan harbiy qismda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" shiori ostida uch avlod uchrashuvi tashkil etildi.



Uchrashuv turli davr vakillarini bir maqsad – Vatan ravnaqi yo'lida birlashtirgan samimiy muloqot maydoniga aylandi.

Tadbirida harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar hamda mehnat faxriylari ishtirok etdi. Suhbatlar davomida Vatanga sadoqat, tinchlikning beqiyos qadri, milliy qadriyatlar va yosh avlod tarbiyasi haqida fikr almashildi. Faxriylar o'z hayotiy tajribasi va xizmat davomida orttirgan saboqlari bilan o'rtoqlashib, yoshlarni yurt ravnaqi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilishga chorladi.

Ochiq va samimiy ruhda kechgan muloqotda faol ishtirok etganlar harbiy qism rahbariyati

tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg'alar bilan rag'batlantirildi.

Yakunda mehmonlar harbiy qismda yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, harbiy xizmatchilar uchun tashkil etilgan ijtimoiy-maishiy imkoniyatlar hamda o'quv va xizmat jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

Umuman olganda, bu kabi uchrashuvlar avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni mustahkamlab, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

**Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

Reklama

TANLOVDA ADASHMANG!



"Avtovoditel" xususiy korxonasiga qarashli avtomobil maktablari barcha xohlovchilarni avtomobil boshqarishning "A", "B", "BC", "C", "CE" hamda "D" toifalariga o'qishga taklif etadi. Mashg'ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlanadi. Shuningdek, bu yerda haydovchilar malakasini oshirish, amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar tayyorlash kurslari ham faoliyat ko'rsatmoqda.



Xizmatlar litsenziyalangan.



Toshkent shahri Yashnobod tumani
"Vatandosh" MFY, Cho'lpon ko'chasi, 1-uy.



99 919-11-88, 88 333-11-88

Hurmatli tinglovchilar! Sizlarga qulaylik yaratish maqsadida bir qancha tumanlarda ham avtomaktab filiallari tashkil etilgan.

"Rahbar va yoshlar"

Qashqadaryo viloyatida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov kitoblik yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

KITOBLIK YOSHLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

Qizg'in o'tgan ochiq muloqotda "Vatanparvar" tashkiloti faoliyati, jumladan tizimda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi. Tadbir savol-javoblar bilan o'tdi.

"Rahbar va yoshlar" uchrashuvi doirasida tashrif buyuruvchilar uchun tashkilotning o'quv avtomobillari va sport seksiyalaridan iborat ko'rgazmalari ham tashkil etildi.

Tadbir doirasida "Vatanparvar" tashkiloti Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Kitob tumani o'quv sport-texnika markazining belgilangan



standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan yangi zamonaviy o'quv avtodromi foydalanishga topshirildi.

Tantanali ochilish marosimida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov, viloyat kengashi hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Qaror va ijro

INSON QADRI UCHUN

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori Q. Isroilov tomonidan Prezidentimizning 2026-yil 1-maydagi qarorlari ijrosi yuzasidan poytaxtimizning Bektemir tumanida o'rganishlar davom ettirildi.

Xususan, tuman prokurori va hokimi, qator mutasaddi tashkilotlar rahbarlari va mas'ullari ishtirokida Ustozlar mahallasida yettilik faoliyati o'rganildi.

Jarayonda bandlikni ta'minlash, yoshlar bilan manzilli ishlash, jinoyatlarning oldini olish kabi qator masalalar ko'rib chiqildi.

So'ngra mahalla infratuzilmasini, mavjud sharoitlarni yanada yaxshilash va istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha rejalashtirilgan va olib borilayotgan ishlar bilan tanishildi.

Yakunda kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mas'ullarga topshiriqlar berilib, muddat belgilandi va ijrosi nazoratga olindi.

Adliya mayori Begali XURRAMOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Salomatlik

Hozirgi kunda yurtimizda taxmin qilingan issiq ob-havoning me'yoridan ancha yuqori bo'layotganini kuzatyapmiz. Jazirama issiqning ta'siri nafaqat ekologik muhitning buzilishiga olib keladi, balki insonlar salomatligiga ham salbiy ta'sir qiladi.

OFTOB URGANDA NIMA QILISH KERAK?

Aslida sog'lom odam organizmi o'zgarib turadigan tashqi muhit haroratiga yaxshi moslashadi. Inson tanasi qahraton sovuqda ham, jazirama issiqda ham haroratini bir maromda ushlab turadi.

Oftob yoki issiq urishi yuqori darajadagi issiqlik ta'sirida inson organizmi tabiiy muvozanatining buzilishidir. Oftob yoki issiq urishining quyidagi turlari mavjud: organizmning qizib ketishi, oftob yoki issiq urishi, degidradatsiya (*suvsizlanish* va *tuzsizlanish*).

Oftob urishi bosh kiyimsiz quyoshning tik tushuvchi nuri ostida uzoq vaqt davomida turish oqibatida bosh miyaning qizib ketishidir. Oftob urganda miyada hayotiy muhim bo'lgan markazlarning ishdan chiqishi yuz beradi. Bosh og'rishi, ko'z tinishi, bosh aylanishi va ko'ngil aynishi, yuz sohasining qizarib ketishi kabi alomatlar yuzaga keladi. Bemor birdaniga hushdan ketishi ham mumkin, nafas va yurak urishi tezlashadi, tana harorati ko'tariladi.

Oftob urganda bemorni dastavval salqin joyga olib o'tib, gorizontal holatda yotqizish, kiyim boshini butunlay yechish, oyoqlarini ko'targan holda yotqizish, badanini sovuq suvda ho'llangan sochiq bilan artish va ko'proq suyuqlik ichirish zarur bo'ladi. Boshiga, ayniqsa bo'yinning ikki yoniga muzli xaltacha qo'yish zarur. Shuni unutmaslik kerakki, qizigan va qizargan teriga spirt surtish, aslo mumkin emas.

Oftob yoki issiq urishidan saqlanish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilmoq lozim:

quyoshning tik nurlari ostida kiyimsiz va bosh kiyimsiz yurmaslik, tanani shamollatish yanada samaraliroq bo'lishi uchun esa shim tasmaini bo'shashtirib, kiyimning yengini qaytarib yurish tavsiya etiladi;

mashg'ulotlar jadvaliga to'liq rioya qilish, tushlikdan oldin va keyin 30 daqiqalik dam olish uchun vaqt ajratish, tushlikdan so'ng jismoniy zo'riqishni talab etadigan mashg'ulotlarni bajarmaslik;

ovqatlanishni tashkil etishda ko'p kaloriyalı ovqatlarni kunning salqin vaqtlariga belgilash; barcha harbiy xizmatchilarning shaxsiy suvdonlarini qaynatilgan suv bilan to'ldirish, har 1-2 soatda 1-2 stakandan qaynatilgan suv yoki choy ichish tavsiya etiladi;

shaxsiy tarkib bilan mashg'ulotlar o'tkazishda ularning jismoniy sifatlariga e'tibor berish, shaxsiy tarkibni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularga kerakli ko'rsatmalar berish;

shaxsiy tarkibning mashg'ulotlar orasida cho'milishi uchun harbiy shaharchalar va dala-o'quv maydonlarida yozgi dushlar tashkil qilish.

Tibbiy xizmat podpolkovnigi M. NAZAROV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi bo'lim boshlig'i

Sog'lom turmush tarzi

SPORT – SOG'LIQ GAROVI

Yurtimizda ommaviy sport musobaqalarining tizimli yo'lga qo'yilishi aholining, ayniqsa yoshlarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishiga katta turtki bo'lmoqda.

Bu, o'z navbatida, oilalar, mahallalar, tashkilot va muassasalarda salomatlikka e'tiborning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2026-yil 7-aprel kuni Prezidentimiz raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sport inson salomatligi garovi bo'lishi lozimligi ta'kidlandi.

Bugun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, uning qamrovini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sa'y-harakatlar ayni maqsadlarga yo'naltirilgani bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamkorligida "Yangi O'zbekistonni yoshlar quradi!" shiori ostida Bektemir tumanidagi umumta'lim maktablari o'quvchilari ishtirokida tashkil etilgan sport musobaqalari ham bu boradagi tadbirlarning amaliy ifodasi bo'ldi.

Musobaqada 6 ta jamoa voleybol, shaxmat, tezkor estafeta va qutqaruv asbob-anjomlaridan foydalanish bo'yicha amaliy mashqlar yo'nalishlarida o'zaro kuch sinashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bellashuvlar yakuniga ko'ra, g'olib jamoalar diplom hamda maxsus esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Adliya kapitani
Lochin KURBONBOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi bo'lim
boshlig'i o'rinbosari

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

QULAY IMKONIYATLAR YARATILGAN



Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Paxtakor tumanida ham ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Jizzax viloyati kengashi tasarrufidagi tuman o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasida olib borilayotgan ishlar shular jumlasidandir.



Fursatdan foydalanib, “Vatanparvar” tashkiloti Paxtakor tumani O‘STM NTM jamoasi barcha yoshlarni haydovchilikning “B”, “BC” toifalariga o‘qishga hamda “C” toifasiga qayta tayyorlash kurslariga taklif etadi. Mashg‘ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishi kafolatlangan.

Shuningdek, sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanish imkoniyati ham mavjud.



**Pahtakor shaharchasi, “Dilorom”
MFY Navro‘z ko‘chasi, 106-uy.**



**97 325-16-74;
97 794-82-29**



Bu boradagi tadbirlar ko'lamini oshirish maqsadida tuman hokimligi, harbiy qismlar, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi, mahallalar hamda Ma'naviyat targ'ibot markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda bir qator muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

– Albatta, “Yagona Vatani, yagona xalq bo‘lib, Yangi hayot va yangi kelajak yaratamiz” shiori ostida o‘tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlarning qalbida ona Vatanga sadoqat hissi, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi, – deydi markaz direktori Mustafoqul Abulqosimov. – Shu bois ham markazimiz jamoasi jismoniy, ma’naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo‘lishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga ko'maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun qulay

sharoitlar yaratilgan. Shu kunlarda markazda “Havo miltig‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon” kabi seksiyalar faoliyati vo‘lga qo‘vilgan.

Bu to'garaklarga o'ttiz nafarga yaqin iqtidorli yosh jalb etilgan. Ular nufuzli musobaqalarda yaxshi natijalarga erishmoqda.

Ta'kidlash joizki, mazkur tashkilotlash ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham zamon talablari asosida tashkil etilgan. Belgilangan reja asosida "B", "BC", "C" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Ayni kunlarda ham tashkilotda bu yo'nalishdagi faoliyat ko'lami yanada rivojlantirilib, bo'lajak haydovchilarning yetarli darajada bilim olishlari uchun ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Tinglovchilarning kasb-hunarlarini puxta egallab olishlari uchun markazda zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Akbar ALLAMURODOV

Xizmatlar litsenziyalangan

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

O'g'lonlar xotirasi

Ota duo qildi, qo'shildi ona,
Qarog'iga to'ldi ayriliq yoshi.
"Yo'ling yorug' bo'lsin, oy borgin, bolam..."
Diliga tugildi sog'inch, bardoshi.

Qo'shni qiz devordan qoldi qo'l siltab,
Muhabbat iqrori ko'ksida pinhon.
Ro'molcha tikkandi yigitga atab,
Chetiga bitilgan rozi dil, paymon.

O'g'lon ketdi shaxdam, burchi sharafligi,
Vatan tinchligini asramog'i shart.
Bu yo'lda jonfido etsa ham mayli,
Posbonlik sha'niga tekkizmagay gard.

Manfur yov tinchimas hurlik qasdidagi,
El tinchin buzmoqlik g'araz maqsadi.
Din-u diyonatsiz jallod aslida,
Na bir millati bor, na bir matlabi.

Sheryurak o'g'lonlar otlandi jangga,
Maqsad – bosqinchilar izin quritmoq.
G'addor qo'l cho'zmasin ona maskanga,
Otashda qolmasin bu aziz tuproq.

Terrorchi to'dalar izg'ir qashqirdek,
Tog'-u toshlararo pana-pastqamda.
Odil jang qilmoqqa jur'ati yo'q lek,
Vatansiz, iymonsiz, ko'ksi alamda.

O'rtada boshlandi ayovsiz urush,
Bir tomon yurtim deb ko'ksi yonganlar,
Bir tomon nafsiga qul vatanfurush,
Onadan tonganlar, o'zdan tonganlar.

Dushmanga otildi olov misoli,
Sayyor-u Elomon, Bobur, Qahramon...
Kelgindi yog'iyning tang bo'ldi holi,
Maqsadiga yetmay itdek berdi jon.

Ona Vatan sari otilgan o'qqa,
O'g'lonlar ko'ksini tutdi mardona.
Navqiron umrlar singdi shafaqqa,
O'chmas qahramonlik bo'ldi afsona.

O'ktam o'g'lon ketdi, qaytmadi ortga,
Ayriliq otashin jim yutdi ona.
"Men sendan roziman, bolam", demoqqa,
O'zida kuch topdi yuragi yona.

Mardlarni unutmang, unutmang, zero
Ular sadoqatning jigarbandlari.
Mardlarni unutmang, unutmang aslo,
Ular ona elning jon payvandlari.

Yillar almashadi, o'tar asrlar,
Ardoqlab jasorat madhiyasini.
Unutmas mardlikka qodir nasllar,
Qahramon o'g'lonlar xotirasini.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar departamenti
– "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining
kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot
agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami
bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi:

kapitan Shohrux Saidov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Muharrir: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6159

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 31 947 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga "IBRAGIMOV RAHIMJON
MAXMUDOVICH" YTT mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH"
YTT bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

www.youtube.com/c/UzArmiya